Kompyuter lingvistikasi algoritmlar hamda inson va EHMning tabiiy tildagi muloqotini kompyuter orqali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Inson arifmetik hisoblarni yengillatuvchi elektron jihozlar o'ylab topdi. Tez orada bu mashinalarning inson bilimi bilan bog'liq bir qator masalalarni hal qilish imkoniga ham ega ekanligi aniq bo'ldi. Faktik materiallar to'plandi, kompyuter dasturlari yaratildi, bilimlarni qayta ishlovchi sun'iy tillar yaratildi. Bu jarayonlar "sun'iy intellekt" deb ataluvchi yangi sohaning shakllanishiga asos bo'ldi. Bizning davrimizda sun'iy intellekt bo'yicha ko'pgina nazariy tadqiqotlar amaliyotga tatbiq qilindi. Aniq mexanik operatsiyalar, obrazlar talqini amalga oshirildi. AQShdagi sun'iy intellekt bo'yicha nazariy tadqiqotlar amaliyotga tatbiq qilindi. Sun'iy intellektning asosiy masalalaridan biri – tabiiy tilni kompyuter orqali tushunishdir. Bu masala kompyuter lingvistikasiga taalluqlidir. O'z navbatida EHM boshqa mashina qurilmalarini boshqarishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun kompyuter lingvistikasi loyihalarini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish bilan inson murakkab texnik obyektlarni ovozi buyruq va tabiiy tildagi matnlar orqali boshqarishi mumkinligi aniqlandi. Kompyuter lingvistikasi inson, so'z, texnika olamining yaxlit birikuvidir. XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda «mashina tarjimasi», «mashina tilshunosligi» atamaları qo'llana boshladi. Kompyuter texnologiyalari tilshunoslikka shu atamalar bilan kirib keldi. Mashina tarjimasi yoki avtomatik tarjima deyilganda bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga EHM (kompyuter) vositasida, tez sur'atda tarjima qilish nazarda tutiladi. XIX asrda tilshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga xizmat qilgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Fanlar integratsiyasi bir qator yangi sohalarning shakllanishiga asos bo'ldi. Xususan, sotsiologiya va tilshunoslik kesimida sotsiolingvistika, psixologiya va tilshunoslik kesimida psixolingvistika, neyrologiya va tilshunoslik kesimida neyrolingvistika, shunga o'xshash biokimyo, astrofizika tipidagi qo'shma fanlar yuzaga keldi. Matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi fanlari ham ikki soha kesimida shakllangan fanlar hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasi XX asrning 50 - yillarida yuzaga keldi. Bu fanning shakllanishida Kopengagen struktural tilshunoslik maktabi (glossematika)ning asoschisi Lui Yelmslevning g'oyalari o'ziga xos «turtki» vazifasini o'tagan. U hatto til hodisalarini matematik bayonda tushuntiradigan fanning nomini ham taklif etgan. Olimning fikricha, bu fan «Til algebrasi» («Lingvistik algebra») deb atalishi lozim edi. Amerikalik tilshunos Noam Xomskiyning formal grammatika, transformatsion grammatika haqidagi qarashlari bevosita matematik lingvistikaning alohida yo'nalish sifatida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Matematik lingvistika fani kompyuter lingvistikasi sohasining shakllanishiga asos bo'ldi. Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli avtomatik tarjima qilish, tillarni o'rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir va tahlil etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo'lgani holda kompyuter lingvistikasi yo'nalishiga zamin yaratdi. Kompyuter lingvistikasi inglizcha «computational linguistics» so'zining kalkasidir. Mashina tarjimasining asoschilari muhandis va matematik olimlar bo'lib, keyinchalik bu ishda tilshunoslar ham faol qatnasha boshlagan. Shu tariqa mashina tarjimasi g'oyalari butun dunyoda nazariy va amaliy tilshunoslikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Formal grammatika nazariyasi shakllandi, til va uning alohida aspektlari modelini yaratishga e'tibor qaratildi. Tilning formal jihatlarini matematik lingvistika fanida ishlab chiqilib, bu o'z navbatida, kompyuter lingvistikasi fanining yuzaga kelishi uchun poydevor bo'ldi. Shu

asosda tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lgan kompyuter lingvistikasi va tilshunoslikning bir qator nazariy va amaliy yo'nalishlari vujudga keldi. Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo'lib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi. Kompyuter lingvistikasining nazariy va amaliy asoslarini belgilashda daniyalik olim L.Elmslev, amerikalik olimlar N.Xomskiy, K.Shenon kabilarning xizmati kattadir. Kompyuter lingvistikasining amaliy muammolari XX asrning o'rtalarida vujudga keldi. Bu narsa birinchi navbatda mashina tarjimasi (MT) bilan aloqadordir. AQSHda Jorjtaun universitetida mashina tarjimasi bo'yicha dunyoda birinchi tajriba o'tkazildi va IBM - 701 rusumli tarjima qurilmasi yordamida 250 ta so'zdan iborat 60 ga yaqin ruscha gaplarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirildi. 1955-yilga kelib BRSM rusumli mashina qurilmasi yordamida inglizcha gaplarni rus tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirildi (I.K.Belskaya, L.N.Korolev, S.N.Razumovskiylar loyihasi asosida). Su tajribalar asosida KL yo'nalish sifatida, 1960-yilga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi. Angliya, Fransiya, Avstriya marniakatlarida ham mashina tarjimasi muammolariga qiziqish boshlandi. Tilshunoslikda ma'lum bir tilni tipologik jihatdan tasniflash, til materiallarini analiz va sintez qilish, tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tiliga o'tkazish masalalari dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Lingvistik tadqiqotlarni avtomatlashtirish masalasiga doir tilshunoslarning maxsus ilmiy konferensiyalari o'tkazilgan. Masalan, 1962-yilda Kembridj shahrida jahon tilshunoslarining IX kongressi o'tkazildi. Bu anjumanda struktural tilshunoslik (ST) va matematik lingvistika ML muammolarini muhokama qilishga alohida o'rin ajratilgan edi. 1967-yilda Buxarest shahrida jahon tilshunoslarining X kongressi o'tkazilib, matematik lingvistika va mashina tarjimasi muammolari maxsus muhokama qilindi. 1960-yilda Parij shahrida o'tkazilgan Xalqaro kongressda maxsus algoritmik til – ALGOL joriy etilgan edi. Bu algoritmik til hozirgi kunga qadar EHMga matnlarni kiritish, ularni dasturlash uchun xizmat qilib kelmoqda. O'tgan yetmish yilga yaqin vaqt mobaynida kompyuter lingvistikasi sohasida bir qator ilmiy va amaliy natijalarga erishildi: tabiiy tilda avtomatik tarjima tizimi yaratildi, matndagi ma'lumotlarning avtomatik qidiruv tizimi ishlab chiqildi, og'zaki nutqning avtomatik analizi va sintezi tizimi yaratildi, bir qator lingvistik muammolarni hal etuvchi kompyuter dasturlari ishlab chiqildi, inson va mashina (kompyuter) muloqoti optimallashtirildi, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) tizimi shakllantirildi. Bu yo'nalishlarda sezilarli yutuqlar qolga kiritilgan bo'lsa-da, qayd etilgan masalalar hali to'liq yechimini topgani yo'q. Bu esa kompyuter lingvistikasi doirasidagi izlanishlarni davom ettirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдиэлари ва йўналишлари. –Т., 2008. -Б. 145.
Гладкий А.В., Мельчук И.А. Элементы математической лингвистики. –М.: Наука, 1969. -
С.7.
Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. –Т., 2009;
Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. –Т.,2011. 21 1954-yil
Abduhamidova L. Komyuter lingvistikasining avtomatik tahrir yo'nalishi. BMI. –Toshkent, 2016.
67 b.
Боярский К.К. Введение в компьютерную лингвистику. Учебное пособие.-Спб.:НИУ
ИТМО, 2013. 29.
Валиева Г. Расмий-идоравий услубнинг лисоний бирликларини моделлаштириш.
Магистрлик дисс.–Тошкент, 2003, 60 б.
Very A Brief. Introduction to Computational Linguistics. Weiwei Su. Institute of Computer
Science and Technology Peking University. 2017.

Development Of Creative Competence In Preschool Children

Inobatkhon Toshpulatova

Namangan State University

2nd year basic doctoral student

inobat9806gmail.com

Abstract

This article covers the pedagogical foundations and methods of forming and developing creative competence in preschool children. Creative competence is important in forming new thinking, creativity, non-traditional approaches to problems and independent decision-making skills in children. During the study, modern pedagogical technologies, interactive games, creative exercises and project-based activities that serve to develop creativity were analyzed. The article also developed methodological recommendations and indicated the possibilities of their application in preschool education practice. It was noted that the results serve to develop children's thinking, form independent thinking and strengthen their communicative competence.

Keywords: preschool education, creative competence, creativity, innovative technologies, creative approach, interactive methods, creative activities, project-based learning, independent thinking, pedagogical technologies.

In today's globalization environment, one of the most urgent tasks facing the education system is to educate the younger generation as creative thinkers, able to find an unconventional approach to problem situations, and capable of independent decision-making. As the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev noted: "Our main task is to educate our children as independent thinkers, possessing modern knowledge and skills, and most importantly, as initiative and creative people." [1] This idea is also reflected in the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", adopted on January 28, 2022, which sets as priority tasks improving the quality of education, developing creativity, and providing education based on an individual approach. The preschool education stage is a crucial period in the formation of thinking, creativity and personal competencies in a child. Therefore, the "Measures to further improve the preschool education system" [2], approved by the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4556 dated December 16, 2019, pays special attention to the development of a creative approach in children and the widespread introduction of innovative methods in the activities of teachers. Also, the UNESCO 2023 report recognizes creativity as a key component of the 21st century competencies and emphasizes the need to develop creative thinking in educational programs [3]. In modern society, creative competence is considered not only a factor of personal development, but also an important factor of future competitiveness. The number of professions requiring creativity in various fields, in particular, in digital technologies, design, engineering, education, etc., is increasing. Therefore, the development of creative competence in preschool children is becoming a priority not only of national education policy, but also of international trends. The use of interactive methods, a project-based approach, STEAM education elements, creative games and art tools in the formation of creative competence gives effective results. These methods serve to develop children's free thinking, search for unusual solutions, and communicative skills. This article analyzes the theoretical foundations and practical application of these methods, and develops methodological recommendations.

The preschool education system in Uzbekistan is being strengthened by international and national efforts aimed at developing new pedagogical approaches and creative competence. Important initiatives are being implemented to improve the quality of preschool education and strengthen the skills of teachers through the "Enhancing Access to Quality Early Childhood

Education Project” implemented in cooperation with UNICEF, IsDB and the Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan[6]. In 2024 and 2025, more than 6,500 teachers were retrained in the republic and 11 regional Training Centers were established; This creates a wide opportunity for the introduction of creative pedagogy. Educational innovations within the framework of the project carried out with UNESCO and IsDB have a positive impact on the formation of creative thinking and independent decision-making skills in children. Creative thinking is also a central topic on international platforms, and the “Creativity in Education Summit 2025”, jointly organized by OECD and UNESCO, also confirms this global trend[5]. It discusses the assessment of creative thinking and its integration into teaching - this is a key step in the development of innovative pedagogical practices in preschool education. The importance of creativity is also growing in global assessment systems: according to the results of PISA 2022, countries with high levels of creative thinking - such as Hong Kong, Korea, Singapore - also have high indicators of academic quality[7]. At the same time, an interesting fact: girls outperformed boys in creative thinking. This central trend requires a reconsideration of the approach to the system of assessment and development of preschool children in terms of creative competence. In one of the national scientific studies, Yuldasheva and Masharipova show that the practice of achieving quality and creativity in preschool education in Uzbekistan through improving curricula, training teachers, and developing infrastructure is not abstract, but is being implemented in a real way[8]. Yunusov also points to the systematic introduction of STEAM and digital technologies into preschool education as a necessary direction for the country's pedagogical development[9]. At the same time, the professional creative competence of teachers is also of particular importance - Akramova and Khasanova note in their articles that teachers continue to actively self-renew, integrate creativity into pedagogical activities[10]. To summarize, the analysis of the literature shows that the development of creative competence requires a clearly grounded approach from national and international sources, implemented in harmony with current innovative pedagogical methods and state programs. Therefore, within the framework of the article, methodological points, integration strategies in practice, and recommendations related to updating the learning environment are of priority.

It is appropriate to express the use of integration in preschool educational organizations as follows: - taking into account the age and level of knowledge of group pupils in the spiritual and moral education of preschool children based on an integrated approach in preschool educational organizations; - considering preschool children as a means of spiritual and moral education in the organization of integrated activities; – to put the child's personality at the center of all educational systems; – to approach the upbringing of spiritual and moral qualities in children on the basis of humanity and to form universal human values in them; – to develop the child's creative abilities, his individuality; – it is necessary to take into account individual and collective education. The spiritual and moral qualities formed in preschool children are directly related to their age and individual characteristics. From infancy to 3-4 years of age, initial spiritual and moral qualities such as greetings, farewells, expressions of gratitude, initial ideas about good and evil, concepts of what is possible and what is impossible, spiritual and moral skills, habits, love for the home where one was born and raised, family members, the environment, work, and people are formed. In the period up to 5-7 years of age, love for the homeland where one was born and raised, parents, and friends is formed. The system of spiritual and moral education, which includes such high qualities as discipline, self-control, modesty, honesty, generosity, hard work, humanity, the ability to feel beauty, the ability to express one's reaction to various negative threats, courage, determination, ingenuity, courage, beauty, nobility, kindness, and nobility, is being improved.

Each lesson was planned in accordance with the First Step program and state requirements. During the experimental study, methods developed to develop creative competence in preschool children (creative games, project-based activities, STEAM elements, dramatization,

"Brainstorming") were put into practice. The results show that the methods used significantly increased children's creative thinking, problem-solving, communicative cooperation, and independent decision-making skills.

The results of the study confirm that an integrative approach aimed at developing creative competence in preschool children is effective. High results are achieved when several methods are used together in this process: Game-based methods (creative role-playing games, dramatization) developed creativity in children through fantasy, emotions and imagination. Project-based education taught children to independently solve problems, work in a team and present ideas. STEAM-education elements developed children's creativity, as well as technical and logical thinking, which is consistent with modern global competencies. Interactive methods such as brainstorming, clustering, Venn diagrams increased children's ability to approach the problem in an unusual way and think from different points of view.

Язык В Психолингвистических Подходах Рассматривается Как Человеческое Богатство

Рахматова Зулхумор Мамитхоновна
старший преподаватель кафедр

Аннотация

В данной тезисе представлена полная информация об истории возникновения психолингвистики, её основных существующих концепциях, а также методах психолингвистического анализа.

Задачи психолингвистики заключаются в использовании основных психолингвистических методов исследования экспериментального материала; демонстрации разнообразия факторов и закономерностей, выявленных разными авторами; акцентировании внимания на современных адаптациях и обосновании сделанных акцентов.

Ключевые слова: психолингвистика, концепция, методы психолингвистического анализа, адаптация, обоснование.

Annotatsiya

Mazkur tezisda psixolingvistikaning kelib chiqish tarixi, mavjud asosiy konsepsiyalari, shuningdek, psixolingvistik tahlil metodlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. «Psixolingvistika» ning vazifalari –tajriba materiali tadqiqotining asosiy psixolingvistik metodlaridan foydalanish; turli mualliflar tomonidan aniqlangan omil va qonuniyatlarning turli tumanligini ko'rsatish; bugungi kunning moslashishlari va ularga berilgan urg'ularni asoslashga e'tibor berishdan iborat.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, kontsepsiya, psixolingvistik tahlil metodlari, moslashish, asoslash.

Psixolingvistika-bu nutqni kodlash va kodni olib tashlash jarayonlarini, lingvistik shaxs bilan ularning o'zaro bog'liqligini o'rganadigan fan. Psixolingvistikaning muammoli sohasi tilshunoslikda ham, psixologiya va fiziologiyada ham vaziyat ta'siri ostida rivojlanadi. Tabiiy til dunyo to'g'risidagi bilimlarimizni aks ettiruvchi asosiy shakl hisoblanadi, ammo u yordamida inson o'z bilimlarini orttiradi, mustahkamlaydi va umumlashtiradi, ularni jamiyatga tuzatilgan tarzda uzatadi. Psixolingvistikada asosiy urg'u nutq faoliyatining kognitiv til mexanizmlari tahliliga qaratiladi. Uning dolzarbligi va o'z vaqtida o'rganilishi zamonaviy pedagogning psixolingvistika – uning asosi, nutq faoliyati nazariyasi bilan psixolingvistik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri singari tanishtirilmaydi. Maqsad shundaki, psixolingvistikaning kelib chiqish tarixi, mavjud asosiy konsepsiyalari, shuningdek, psixolingvistik tahlil metodlari haqida to'liq ma'lumot berish sanaladi. «Psixolingvistika» ning vazifalari –tajriba materiali tadqiqotining asosiy psixolingvistik metodlaridan foydalanish; turli mualliflar tomonidan aniqlangan omil va qonuniyatlarning turli tumanligini ko'rsatish; bugungi kunning moslashishlari va ularga berilgan urg'ularni asoslashga e'tibor berishdan iborat. Yuqorida ko'rsatilganlar bo'lg'usi mutaxassislarga aniq vazifalarni aniqlaydi: tinglovchilarga psixolingvistikaning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan, uning hozirgi yuzini aniqlagan, o'tmish va hozirgi psixolingvistlarning asosiy qarashlarini aks ettirgan eng muhim va eng qiziqarli tendensiyalar, maktablar, nazariyalar va asarlar haqida tushuncha beriladi; tinglovchilarni eng taniqli tadqiqotchilar, ularning g'oyalari va fikrlari bilan tanishtiradi; bugungi kunda duch keladigan eng dolzarb muammolar doirasini belgilash uchun biz zamonaviy ilm-fanga duch kelamiz va ularni tushunish va hal qilishning ba'zi mumkin bo'lgan usullarini ko'rsatamiz. Mazkur tezisda A.A. Leontyev, I.N. Gorelov, A.R. Luriya, A.A. Zalevskaya, V.P. Belyanin, N. Xomskiy, Dj. Miller va boshqa mashhur psixolingvist olimlar tomonidan har xil psixolingvistik konsepsiyalar tahlil qilinadi, 3 ta muammo bo'yicha muhim nazariy holatlar taqdim etiladi, nutq faoliyati to'g'risidagi

fanning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi bayon qilinadi. Distansion ta'limda talabalarning mustaqil ishlari uchun foydalanishi mumkin bo'lgan topshiriq va masalalar ro'yxati muhokama qilinadi. Psixolingvistikaning chuqurlashtirib o'rganishga ajratilgan bo'limi uchun qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

Psixolingvistika (PL) (psycholinguistics; Psycholinguistik; psycholinguistique) – bu nutq hosil bo'lish jarayonlari, shuningdek, bir tomondan til tizimidagi o'zaro bog'liqlikda nutqni edrok etish va shakllanishi, ikkinchi tomondan inson shaxsini o'rganuvchi fan sanaladi. Psixolingvistika alohida fan sifatida XX asrning 50-yillarida paydo bo'lgan va nutq faoliyati jarayon va mexanizmlarini til tizimi bilan mosligini o'rganishni maqsad qilgan. Bu til inson nutq faoliyatini (nutq xatti-harakati) ta'minlaydigan dinamik, harakatlanadigan, "ishlaydigan" tizim sifatida talqin qilish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Uning diqqat-e'tibori lingvistik birliklarga (tovushlar, so'zlar, jumlar, matnlar) emas, balki ma'ruzachi uchun ularning psixologik haqiqati, ulardan avlod harakatlarida va so'zlarni tushunishda, shuningdek tilni o'zlashtirishda foydalanishga qaratilgan. U individning nutq faoliyati modelini ishlab chiqadi va ularning eksperimental tekshiruvini amalga oshiradi. PL nuqtai nazaridan, ma'lum bir buzilishlar sharoitida nutqqa, ma'lum sabablarga ko'ra qiyin sharoitlarda, nostandart vaziyatlarda: bolalar nutqi, turli xil patologiyalarga ega nutq, bu haqda yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan chet tilidagi nutq, nutqning hissiy qo'zg'alish holati, aloqa-oddiy so'zlashuv, jargon, mahalliy dialekt - tilning "nostandart" shakllaridan foydalanish sharoitidagi muloqot, sun'iy inson-kompyuter tizimlarida yoki aloqa kanallari aralashularida muloqotga alohida e'tibor beriladi.

Psixolingvistikada tabiiy ilmiy va ijtimoiy yondashuv mujassam. U neyrolingvistika, kognitiv psixologiya, kognitologiya, informatika, nazariy va tabiiy intellekt, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy lingvistika, pragmalingvistika, diskurs tahlili bilan uzviy bog'liqdir. Ulanish tabiatidagi yangi fanlar (xolingvistika etnopsi, ijtimoiy psixolingvistika, matn psixolingvistikasi va b.) paydo bo'lmoqda. Psixolingvistikada o'tmishda V. fon Gumboldt, A. Shleyxer, X. Shtayntal, A.A. Potebnyoy, V. Vundt, A. Marti, K. Byuler, Dj. Dyui, S. Freyd, R. Yung, J. Piaje, F. Kaynts, G. Giyom, I.P. Pavlov, L.S. Vigotskiy, R.O. Yakobson, A.N. Gvozdev tomonidan o'rtaga tashlangan muammolar qayta ishlab chiqiladi. Psixolingvistikada quyidagi muammolar: nutq idrok qilinishining psixolingvistik birliklari, nutq yaratish va tushunish bosqichlari, til o'rganish (asosan chet tillari), maktabgacha bo'lgan bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari, markaziy-miya nutq buzilishlar klinikasi, nutq nazorati asosida asab kasalliklari tashxisoti, nutq ta'siri muammolari (tashviqot, ommaviy axborot vositalari faoliyati, reklama), aviatsion va kosmik psixologiya, shuningdek, sud hamda jinoyat psixologiyasining lingvistik jihatlari, insonning ichki so'z boyligini tashkil qilish muammolari, inson va kompyuter dialogi masalalari, matnni, axborot, nazariya va sun'iy intellektni avtomatik qayta ishlashlarni o'z ichiga oladi. Nutq hodisalari yoki nutq vaziyatlari yig'indisi, ya'ni belgilar tizimi psixolingvistikaning ob'ekti sanaladi. Misol sifatida valentlik singari toifaga murojaat qilamiz. Valentlik – bu bir elementning boshqa elementlar bilan birikish imkoni sanaladi. Semantik va sintaktik valentlik tafovutlanadi.

Gapirish va tinglashning haqiqiy jarayonlarini anglash nuqtayi nazaridan eng katta qiziqish uyg'otadigan yo'nalish — bu 1960-yillarda zamonaviy rus tilshunosi M.V.Panov tomonidan taklif etilgan va keyinchalik Ye.A.Zemskaya rahbarligidagi jamoa tomonidan amalga oshirilgan suhbat nutqini o'rganish dasturidir. Ilk bor suhbat nutqiga kodifikatsiya qilingan adabiy til tizimi bilan parallel ravishda mavjud bo'lgan alohida tizim sifatida qarash nazariyasi shakllantirildi. Suhbat nutqi tizimining har bir sathida — fonetika, morfologiya yoki sintaksis bo'ladimi — aynan suhbat nutqiga xos qonuniyatlar amal qiladi.

Umumiy tarzda aytganda, suhbat nutqining o'ziga xosligi shundaki, ma'lumotning katta qismi nutq matnida emas, balki muloqot vaziyatining o'zida saqlanadi (bu suhbat nutqining konsituatsiyaviyligi deb ataladi). Shu bois nutq so'zlovchi (beixtiyor) tinglovchining zarur ma'lumotni osongina anglay olishiga tayanadi, chunki tinglovchi ham muloqot vaziyatining ko'p

qavatli kontekstiga bir xilda ega. Bu — muloqot qatnashchilarining mimika va jestlari, harakatning vaqti va joyi, shu muhitda qabul qilingan nutq odobi va h.k.

Ikki tizim – suhbat nutqi va kodifikatsiya qilingan adabiy til tizimining parallel funksiyalanishi nazariyasi karlar ishora tilining funksiyalanishini anglash uchun juda samarali bo'lib chiqdi (qarang: jest tillari). Rossiyada buni Ye.A.Zemskaya va uning hamkasblariga tayana turib, defektolog L.G.Zayseva ko'rsatib berdi.

Karlar ishora tili – tug'ma kar yoki erta eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lgan shaxslarning «ona tili»dir. Ishora nutqi kundalik muloqot vositasi sifatida kar bolada faqat u kar ota-ona oilasida o'ssa yoki erta yoshda karlar jamoasiga kirib borsa shakllanadi. Aynan suhbat ishora nutqini egallash kar bolaning aqliy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvining asosiy sharti bo'lib xizmat qiladi.

Funksiyasi jihatidan, karlar o'zaro norasmiy holatlarda muloqot qiladigan ishora nutqi suhbat nutqiga o'xshash. Biroq suhbat ishora nutqi oddiy suhbat nutqining kinetik kalkasi emas, balki o'ziga xos belgilar tizimi bo'lib, unda umumiy kommunikativ universalialar ham, ayni paytda o'z spetsifikasi ham mavjud. Uning spetsifikasi ko'p jihatdan ishora nutqining moddiy shakli bilan belgilanadi: ishora fazoda amalga oshiriladi, bir qo'l yoki ikki qo'l bilan, turli sur'atda bajarilishi mumkin va doimo mimika bilan hamroh bo'ladi. Odatiy suhbat nutqiga o'xshash holda, karlar ishora nutqi ham printsiptial tarzda konsituativdir.

Suhbat ishora tili bilan bir qatorda karlar jamiyatida kal'ka qiluvchi ishora nutqi ham funktsiyalanadi. U katta darajada rus adabiy tilining kinetik nusxasi hisoblanadi. Televidenie yangiliklarida ishora tarjimoni aynan shu kal'ka qiluvchi ishora nutqidan foydalanadi; savodxon karlar esa rasmiy chiqishlarda shu turdagi ishora nutqini ishlatadilar.

Odatiy suhbat nutqi va ishora suhbat nutqining grammatikasi va semantikasi kodifikatsiya qilingan adabiy tilga qarshi qo'yilgan tizimlar sifatida qiyosiy o'rganilganda samarali natija beradi. Suhbat nutqiga (ishora nutqini ham qo'shgan holda) ikki qarama-qarshi tendensiya xos: bu — parchalanish va qisqalik, sinkretizm. Masalan, kodifikatsiya qilingan adabiy tilda bitta leksema bilan ifodalangan ma'nolar suhbat nutqida parchalanib ketadi: masalan, ruchka o'rniga ko'pincha chem pisat deyiladi. Ishora suhbat nutqida bunga o'xshash holat sifatida chernika leksemasi o'rniga [yagoda] + [cherniy] + [yazik] nominativ modeli qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр соч.: в 6 т. - М., 1982. - Т. 2.

Доброва В.В. Психолингвистика речевого общения; взаимосвязь личностных характеристик обучающихся и уровня их языковой культуры // Известия Самар. науч. центра Российской академии наук. - 2010. - Т. 12. - № 3-3. - С. 711-715.

Доброва В.В. Психолингвистический подход к исследованию способности обучения иностранным языкам // Вестник Самар. гос. техн. ун-та. Сер. Психолого-педагогические науки. - 2011. - № 2. - С. 27-34.

Доброва В.В. Психологические особенности субъекта диалогического дискурса // Вестник Самар. гос. техн. ун-та. Сер. Психолого-педагогические науки. -2011. - № 1. - С. 30-35.

Краснов А.Н., Слоева Е.А., Мензул Е.В. Психолингвистика: учеб. пособие для студентов факультета «Медицинская психология». - Изд. 2-е, испр. и доп. -Самара: «Инсома-пресс», 2012. - 117 с.

Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. - М.-СПб., 2003.

Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. - М., 1973.

Нечитайло А.А., Прядильникова Н.В., Депцова Т.Ю., Гнутова А.А., Шокова Е.В. Обучающие интернет-технологии как инновационный инструмент создания системы электронного дистанционного образования (практический опыт применения) // Вестник Поволжского гос. ун-та сервиса. Сер. экономика. – 2014.

State And Family Partnership In The Management Of Preschool Education In Japan And South Korea

Yakubova Dilnoza Zokirjonovna

Director of the 11th State Preschool Education

Organization of the Uzbek district

dilnozayakubova38@gmail.com

Abstract

This thesis analyzes the formation and effectiveness of state and family cooperation in the management system of preschool education in Japan and South Korea. During the study, the coverage of preschool education, parental participation, state policy and management mechanisms were studied based on data from the Ministries of Education of the two countries and international organizations (OECD, UNESCO). According to the results of the analysis, the high level of quality of education in Japan and South Korea is directly related to the financial support of the state and the active participation of the family. This experience is of urgent importance for Uzbekistan in the process of modernization of preschool education.

Keywords: Japan, South Korea, preschool education, public policy, family cooperation, management, quality control.

Annotatsiya

Ushbu tezisda Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'limni boshqarish tizimida davlat va oila hamkorligining shakllanishi hamda samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ikki mamlakatning Ta'lim vazirliklari va xalqaro tashkilotlar (OECD, UNESCO) ma'lumotlari asosida maktabgacha ta'lim bilan qamrov, ota-onalar ishtiroki, davlat siyosati va boshqaruv mexanizmlari o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Yaponiya va Janubiy Koreyada ta'lim sifatining yuqori darajasi davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi va oilaning faol ishtirokiga bevosita bog'liq. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Yaponiya, Janubiy Koreya, maktabgacha ta'lim, davlat siyosati, oila hamkorligi, boshqaruv, sifat nazorati.

Kirish

So'nggi yillarda Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlari Osiyoda eng ilg'or modellar sifatida e'tirof etilmoqda. Ikkala mamlakatda ham maktabgacha ta'lim bola rivojlanishining poydevori sifatida qaraladi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi MEXT (Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi) tomonidan boshqariladi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, 3–6 yoshli bolalarning 97 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. Mamlakatda maktabgacha ta'lim muassasalari ikki asosiy turga ajraladi: "Yōchien" (bolalar bog'chasi) va "Hoikuen" (parvarish markazi). "Yōchien" asosan ta'limiy yo'nalishga ega bo'lib, Ta'lim vazirligi tomonidan litsenziyalanadi, "Hoikuen" esa ijtimoiy himoya va parvarish tizimiga kiradi hamda sog'liqni saqlash va mehnat vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

Janubiy Koreyada esa maktabgacha ta'lim tizimi KICCE (Bola parvarishi va ta'lim instituti) hamda MOE (Ta'lim vazirligi) tomonidan muvofiqlashtiriladi. 2025-yil holatiga ko'ra, 3–5 yoshli bolalarning 96 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. Koreyada davlat siyosati "Happy Start Program" (Baxtli boshlanish dasturi) orqali ota-onalar ishtirokini kuchaytirishga, oilaning ta'limdagi rolini kengaytirishga va bolalarning erta rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limni samarali boshqarish uchun davlat tomonidan barqaror moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ota-onalar bilan

uzviy hamkorlik va ta'lim jarayonining shaffofligi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu tajribalar boshqa mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham erta yoshdagi ta'limni rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Metodlar

Tadqiqotda Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda davlat va oila hamkorligining o'ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadida bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Taqqoslama tahlil – Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim boshqaruv tizimi, davlat siyosatining yo'nalishlari hamda ota-onalar ishtiroki shakllari o'zaro solishtirildi. Bu jarayonda ikki mamlakatning ta'lim modeli, tashkiliy tuzilmasi va oila bilan hamkorlik mexanizmlari tahlil qilindi.

Hujjatli tahlil – Yaponiya Ta'lim vazirligi MEXT (Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi), shuningdek, Janubiy Koreya Bola parvarishi va ta'lim instituti KICCE (Bola parvarishi va ta'lim instituti) tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar, davlat dasturlari hamda xalqaro tashkilotlar – UNESCO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, Fan va Madaniyat tashkiloti) va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) statistik ma'lumotlari o'rganildi.

Statistik tahlil – Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi, davlat xarajatlari ulushi, ota-onalar ishtiroki ko'rsatkichi hamda pedagoglarning malaka darajasi bo'yicha real raqamli ma'lumotlar tahlil qilindi va solishtirma jadval shaklida umumlashtirildi.

Ushbu metodlar yordamida ikki mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda davlat va oila o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi aniqlanib, ularning o'xshash va farqli jihatlarini tahliliy tarzda yoritildi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning umumiy jihati — davlat va oila hamkorligi asosida sifatli ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Har ikki mamlakatda maktabgacha ta'lim siyosati davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi, lekin ta'lim jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki, mahalliy hamjamiyat bilan aloqalar va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivoji asosiy omil hisoblanadi.

Yaponiyada ta'lim tizimi PTA (Ota-onalar va o'qituvchilar assotsiatsiyasi) orqali ota-onalar ishtirokiga tayanadi. Har bir "Yöchien" (bolalar bog'chasi) va "Hoikuen" (parvarish markazi)da ota-onalar kengashi faoliyat yuritadi, ular ta'lim jarayonini muhokama qilish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va bolalarning rivojlanishini nazorat qilishda ishtirok etadi.

Janubiy Koreyada esa davlat tomonidan joriy etilgan "Happy Start Program" (Baxtli boshlanish dasturi) orqali oilaviy ishtirokni kuchaytirish va bolalarning ijtimoiy hamda psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, har ikki mamlakatda bolalarning erta rivojlanishini kuzatish uchun zamonaviy raqamli tizimlar qo'llaniladi. Yaponiyada bu "Kodomo Data System" (Bola ma'lumot tizimi) orqali, Janubiy Koreyada esa "Nuri Curriculum Monitoring System" (Nuri o'quv dasturi monitoring tizimi) orqali amalga oshiriladi. Ushbu raqamli platformalar (digital platforms) bola rivojlanishini, sog'ligini va o'quv yutuqlarini muntazam nazorat qilishga imkon beradi.

Jadval 1. Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim boshqaruvi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2024–2025)

No	KO'RSATKICH	YAPONIYA	JANUBIY KOREYA	MANBA
1	Maktabgacha ta'lim bilan qamrov	97% (3–6 yosh)	96% (3–5 yosh)	OECD, 2024
2	Davlat mablag'lari ulushi	64%	71%	UNESCO, 2023

3	Ota-onalar ishtiroki dasturi	PTA (Parent–Teacher Association – Ota-onalar va o‘qituvchilar assotsiatsiyasi) faol	Happy Program boshlanish dasturi)	Start (Baxtli	MEXT, KICCE, 2024
4	Pedagoglar malaka oshirishi	Har 5 yilda majburiy	Har 3 yilda majburiy		MEXT, 2024
5	O‘qituvchi–bola nisbati	1:15	1:12		OECD, 2024
6	Bolaning rivojlanish monitoringi	“Kodomo Data System” (Bola ma’lumot tizimi)	“Nuri Curriculum Monitoring” (Nuri o‘quv monitoring tizimi)		KICCE, 2025

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta’limni boshqarishda oila ishtiroki va davlat nazoratining uyg‘unligi yuqori samaradorlik beradi. Bu tizim bolalarning erta rivojlanishini ta’minlash bilan birga, ota-onalarning ta’lim jarayonidagi mas’uliyatini ham kuchaytiradi.

Muhokama

Yaponiya tajribasida oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik PTA (ota-ona va o‘qituvchilar assotsiatsiyasi) orqali samarali tashkil etilgan. Har bir “Yōchien” (bolalar bog‘chasi) va ***“Hoikuen” (parvarish markazi)**da ota-onalar kengashi faoliyat yuritadi. Ushbu kengashlar ta’lim jarayonini kuzatish, o‘quv dasturlarini muhokama qilish, bolalarning individual rivojlanishini nazorat qilish hamda moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda faol ishtirok etadi. Shuningdek, Yaponiyada ta’lim jarayonida kodomo katei renkei (bola–oila hamkorligi) tamoyili asosida tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Bu yondashuv bolani maktabgacha davrdan boshlab ijtimoiy va emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Janubiy Koreyada esa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan “Happy Start Program” (Baxtli boshlanish dasturi) oilalarga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, tarbiyaviy maslahat, psixologik yordam va sog‘lom tarbiya bo‘yicha tavsiyalarni tizimli tarzda taqdim etadi. Har bir oilaga bola rivojlanishini doimiy kuzatib boruvchi digital child record (raqamli bola profili) yaratiladi. Ushbu ma’lumotlar “Nuri Curriculum Monitoring System” (Nuri o‘quv dasturi monitoring tizimi) orqali davlat bazasida saqlanadi va ota-onalar bilan pedagoglar o‘rtasidagi aloqa samaradorligini oshiradi.

Ikkala mamlakatda ham ota-onalar ishtiroki (parental involvement) ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi. Davlatning boshqaruvdagi ochiqqligi, oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi muntazam hamkorlik hamda ijtimoiy mas’uliyatning yuqori darajada shakllangani bu tizimlarning muvaffaqiyatini ta’minlagan.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun ota-onalarni faqat foydalanuvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol hamkoriga aylantirish zarur. Shu yondashuv bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ta’lim tizimining barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limni boshqarishda davlat va oila o‘rtasidagi samarali hamkorlik sifatli ta’limni ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Bu hamkorlik faqat ta’lim jarayonida emas, balki bolalarning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Yaponiyada ushbu jarayon PTA (ota-ona va o‘qituvchilar assotsiatsiyasi) faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu tizim ota-onalarning ta’lim muassasalari boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytiradi, shaffoflik va jamoaviy mas’uliyatni ta’minlaydi. Janubiy Koreyada esa davlat tashabbusi asosida joriy etilgan “Happy Start Program” (Baxtli

boshlanish dasturi) oilalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirib, bola rivojlanishini monitoring qilish tizimi (digital child record – raqamli bola profili) orqali muvofiqlashtiradi.

Har ikki mamlakatda oila – maktabgacha ta'limning to'laqonli ishtirokchisi sifatida qaraladi. Ota-onalar nafaqat farzand tarbiyasida, balki ta'lim muassasalari faoliyatini baholash, rejalashtirish va rivojlantirishda ham faol qatnashadi.

Ushbu modelni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish orqali:

- ta'lim sifatini barqaror oshirish,
- ota-onalarning maktabgacha ta'lim jarayonidagi rolini kuchaytirish,
- davlat, oila va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash mumkin.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi asosida yaratilgan bunday integratsion yondashuv (integrated approach – yaxlit yondashuv) O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda samarali model sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

MEXT Japan. Annual Report on Early Childhood Education and Care, Tokyo, 2024.

KICCE Korea. Early Childhood Education and Family Participation Survey, Seoul, 2025.

OECD. Education at a Glance 2024, Paris, 2024.

UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2023.

Government of Japan. Childcare and Family Policy White Paper, 2024.

Ministry of Education, Korea. Happy Start Program Overview, Seoul, 2024.

Nigoraxon, A., & Bibirobiya, U. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH. University Research Base, 72-75.

Abduraxmonova, N. (2022). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI.

Science and innovation, 1(B8), 2114-2121.
Abduraxmonova, N. A. (2025). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARINING ROLI. Inter education & global study, (1 (1)), 15-21.

Nigoraxon, A. (2024). IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINING INDIVIDUAL-SHAXSIY SIFATLARI. University Research Base, 55-58.

Ecological Problems At The International Level

Yuldashev Abdulmut

School No. 38 under the jurisdiction of the Chortok district, Namangan region
Head of the Methodological Association of Natural Sciences,
Teacher of Geography and Biology

Annotation:

This thesis analyzes the current state of global ecological problems, their impact on human life, and ways to eliminate them through international cooperation. Also, the importance of regional ecological problems at the international level is highlighted using the example of Uzbekistan.

Annotatsiya:

Ushbu tezisdagi global ekologik muammolarning zamonaviy holati, ularning insoniyat hayotiga ta'siri hamda xalqaro hamkorlik orqali ularni bartaraf etish yo'llari tahlil etiladi. Shuningdek, O'zbekiston misolida mintaqaviy ekologik muammolarning xalqaro darajadagi ahamiyati yoritilgan.

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar insoniyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson faoliyati natijasida atmosfera, suv va tuproqning ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishi Yer sayyorasining ekologik barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Global iqlim o'zgarishi — bugungi kundagi eng xavfli ekologik muammo bo'lib, issiqxona gazlarining ko'payishi natijasida Yer harorati ortmoqda. Bu esa muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, qurg'oqchilik va suv tanqisligining kuchayishiga olib kelmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida esa Aral dengizi fojiasi eng yirik ekologik inqiroz sifatida tarixda qoldi. Bu holat nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Aral muammosini hal etish yo'lida xalqaro tashkilotlar — BMT, UNESCO, GEF kabi tuzilmalar faoliyat olib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan "2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari" ekologik muammolarning yechimiga qaratilgan global harakatlar dasturidir. Xususan, "Toza suv va sanitariya", "Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash", "Quruqlikdagi hayotni asrash" kabi maqsadlar ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ekologik muammolarni bartaraf etishda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni singdirish va barqaror hayot tarzini targ'ib etish orqali muammoning ildiziga ta'sir etish mumkin. Xulosa qilib aytganda, xalqaro ekologik muammolarni hal etish har bir davlat, tashkilot va shaxsning umumiy mas'uliyatidir. Tabiatni asrash — bu insoniyatning kelajagini asrash demakdir.

Kalit so'zlar:

Ekologik muammo, global isish, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish, Aral dengizi, ekologik madaniyat.

Innovative Approaches In Managing The Preschool Education System Based On The Finnish Experience

Yakubova Dilnoza Zokirjonovna

Director of the 11th State Preschool Education

Organization of the Uzbek district

dilnozayakubova38@gmail.com

Abstract

This thesis analyzes innovative approaches to managing the Finnish preschool education system. During the study, based on data from the Finnish National Agency for Education, the Organization for Economic Cooperation and Development (OECD), and the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), the quality of education, professional development of educators, digital education, and mechanisms for cooperation with families were studied. According to the results, the Finnish preschool education system uses an individual approach to child development based on the principle of "learning through play". In this model, innovative technologies, pedagogical freedom, and cooperation with parents are shown as the main guarantees of the quality of education.

Keywords: Finland, preschool education, innovative approach, management, pedagogical freedom, digital education, family cooperation.

Annotatsiya

Ushbu tezisda Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti (UNESCO) ma'lumotlari asosida ta'lim sifati, pedagoglarning kasbiy rivoji, raqamli ta'lim hamda oila bilan hamkorlik mexanizmlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimi "o'yin orqali o'rganish" tamoyiliga asoslanib, bola rivojlanishiga yo'naltirilgan individual yondashuvni qo'llaydi. Ushbu modelda innovatsion texnologiyalar, pedagogik erkinlik va ota-onalar bilan hamkorlik ta'lim sifatining asosiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Finlyandiya, maktabgacha ta'lim, innovatsion yondashuv, boshqaruv, pedagogik erkinlik, raqamli ta'lim, oila hamkorligi.

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda Finlyandiya ta'lim tizimi butun dunyoda muvaffaqiyatli, samarali va insonparvar model sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari natijalari, xususan, PISA (xalqaro o'quvchilar savodxonligini baholash dasturi) bo'yicha Finlyandiya o'quvchilari yuqori natijalar ko'rsatgan. Bu yutuqlarning ildizi aynan maktabgacha ta'lim bosqichidan, ya'ni bolaning ilk rivojlanish muhitidan boshlanadi.

Finlyandiyada ta'lim tizimi jamiyat qadriyatlariga chuqur singib ketgan. Bu tizimda har bir bola teng imkoniyatlarga ega, ularning oilaviy sharoiti, ijtimoiy mavqei yoki yashash joyidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqi davlat tomonidan to'liq kafolatlangan. Shu bois maktabgacha ta'lim davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Finlyandiya ta'lim falsafasining markazida insonparvarlik, ishonch va ijodkorlik tamoyillari yotadi. Davlat ta'lim jarayonida nazoratdan ko'ra ishonch, raqobatdan ko'ra hamkorlikni ustuvor deb biladi. O'qituvchiga, ota-onaga va bolaga nisbatan ishonch muhitini yaratish orqali ta'lim tizimi barqarorlik va sifatni ta'minlaydi.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda bola shunchaki bilim olmaydi, balki o'zini anglash, his-tuyg'ularni boshqarish, jamoada muloqot qilish va muammoni mustaqil hal etish kabi hayotiy ko'nikmalarni o'rganadi.

Finlyandiya tizimida “bolaning farovonligi — ta’limning markazida” degan g’oya amalda ro’yobga chiqarilgan.

Finlyandiya ta’lim siyosati “ta’lim — bu bosim emas, imkoniyat” degan tamoyilga tayanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o’quv jarayoni o’yin, muloqot, ijodiy faoliyat va tajriba orqali tashkil etiladi. Har bir bola o’z sur’atida rivojlanadi, pedagog esa bu jarayonda yo’lboshchi, kuzatuvchi va yordamchi rolini bajaradi.

Bu yondashuv natijasida Finlyandiya bolalari erta yoshdan boshlab erkin fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muloqot va mustaqil qaror qabul qilishga o’rganadilar. Shuning uchun ham mamlakatda ta’lim tizimi “bosqichma-bosqich rivojlanish” emas, balki “bolaning tabiiy o’sishiga mos rivojlanish” tamoyiliga asoslanadi.

Ta’lim jarayonining bunday tabiiy, lekin samarali tashkil etilishi Finlyandiyani jahonning eng ilg’or ta’lim mamlakatlaridan biriga aylantirdi. Bu tizimda muvaffaqiyat raqamlar bilan emas, balki bola baxtiyorligi, ruhiy barqarorligi va ijodkorligi bilan o’lchanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarish modeli

Finlyandiyada maktabgacha ta’lim tizimi butun ta’lim siyosatining poydevorini tashkil etadi. Bu tizim Finlyandiya Milliy ta’lim agentligi (FNBE) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Mazkur idora davlat darajasida o’quv dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, ta’lim sifatini monitoring qilish va o’qituvchilarni tayyorlash jarayonlarini muvofiqlashtiradi.

FNBEning eng muhim vazifalaridan biri — maktabgacha ta’limda yagona milliy o’quv dasturining (National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care) mazmunini belgilashdir. Ushbu dastur mamlakat bo’ylab barcha maktabgacha ta’lim muassasalarida qo’llaniladi, biroq uning amalga oshirilish usullari mahalliy sharoit va bolalarning ehtiyojlariga qarab moslashtiriladi. Bu yondashuv ta’lim tizimining bir tomondan barqarorligini, ikkinchi tomondan esa moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim Finlyandiyada davlat tomonidan moliyalashtiriladi va bepul hisoblanadi. Har bir bola uchun ta’lim huquqi konstitutsion darajada kafolatlangan. Shuningdek, past daromadli oilalarga qo’shimcha subsidiyalar, bepul ovqatlanish va transport xizmatlari taqdim etiladi. Shu yo’l bilan davlat har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

rag'batlantirilishi, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy tamoyillar sifatida belgilangan. Bunda pedagog xodimlarning intellektual sifatleri hamda kasbiy mahoratini yanada rivojlantirish, ta'lim va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs tafakkurining shakllanishi va rivojlanishi, o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi respublikamiz hamda qator xorijlik pedagog-psixolog olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Ta'lim jarayonida shaxs dunyoqarashi va tafakkurini barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbaalar hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiy, A.Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining qomusiy asarlarida yoritib berilgan. Respublikamiz olimlaridan B.Abdullayeva, Sh.Abdullayeva, M.Tashpulatova, M.Qulaxmetova, R.Ibragimov, Ch.T.Shakirova, M.Ismailovlarning boshlang'ich sinflarda darslarni modulli innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ishlarini e'tirof etish mumkin.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qitishning turli jihatlar B.R.Adizov, Sh.Nurullayeva, F.Xo'jjiyevlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, psixolog olimlardan E.G'oziyev, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova, V.Karimova, R.Sunnatova kabilar tomonidan inson tafakkuri va fikrlash jarayoni muammosining psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan N.Menchinskaya, O.Makaricheva, P.Blonskiy, L.Bushuyeva, L.Vigotskiy, A.Z.Zak, Z.Kalmikova, N.Kochelayeva, O.Ozerova, Y.Ponamoryev, V.Ribinskiylarning tadqiqotlarida o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda evristik topshiriqlardan foydalanish, kichik maktab o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish metodlari, shaxsda ijodiy fikrlash potensialini aniqlash, ijodiy tafakkurni shakllantirishning pedagogikpsixologik masalalari o'rganilgan. Xorijlik olimlardan K.E.Izard, T.Radinger, Dj.Dyui, X.Geyvin, R.J.Sternberg, K.Sternberglar tomonidan shaxsning hissiy kechinmalari, fikrlash jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari, o'z-o'zini tushunish qobiliyati, kognitiv jarayon, shaxsda pozitiv fikrlashni shakllantirish muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga doir zamonaviy yondashuvlar mazmuni hamda unga ta'sir etuvchi omillar, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning alohida metodik tizimi maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur jihatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda milliy ta'lim tizimida o'qitish va tarbiyalash jarayonining samaradorligi hamda natijaviyligini ta'minlash eng muhim jamiyat talabi hisoblanmoqda. Bunda o'qituvchidan yuksak kasbiy bilim, pedagogik mahorat va o'qitish jarayonida interfaol ta'lim usullaridan foydalanishga oid ko'nikmalar talab qilinadi. Shundan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan bilim va tajribalarni o'zlashtirishida didaktik o'yinlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Dastlab, o'yin tushunchasining mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. Pedagogik jihatdan, o'yin – ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi.

Didaktik o'yin texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va ularda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini anglash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va

boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va xarbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. Quyida, didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy dars shakllariga to'xtalib o'tamiz: Ishchanlik o'yini darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars - dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Bundan tashqari o'qituvchilar bir didaktik o'yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar;
- ishtirokchilar soni bo'yicha-yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o'yinlar;
- o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan o'yinlar;
- vaqt me'yori bo'yicha-dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanmaguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar [13].

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanar ekan, buning uchun albatta o'yin mazmun-mohiyatidan kelib chiqib eng zarur vositalarni tanlay bilishi kerak. Chunki, zaruriy vositalar didaktik o'yin samaradorligini ta'minlaydi. O'qituvchilar didaktik o'yinlarni tashkillashtirishda ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan didaktik o'yin darslarini o'qitish jarayonida qo'llashda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan yuksak mahorat va tashkilotchilik qobiliyati talab qilinadi. Shuningdek, o'qituvchi o'yinli o'qitish texnologiyalaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etganda, quyidagi asosiy vazifalarni qat'iy belgilab olishi lozim: Didaktik: bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda qo'llash, yangi ko'nikma, malakalarni shakllantirish, dunyoqarashni kengaytirish.

Tarbiyalovchi: mustaqillik, iroda, etik va estetik qarashlar, hamkorlik, jamoada tarbiyalash. Rivojlantiruvchi: diqqat, xotira, nutq, fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, taqqoslash, solishtirish, o'quv motivatsiyasini rivojlantirish. Ijtimoiylashtirish: qadriyat va an'analarni o'zlashtirish, mavjud shartsharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, uzluksiz ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda didaktik o'yin darslaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilimlarni o'zlashtirishi, hamkorlikdagi faoliyat dinamikasining oshishi, ularning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Goleman, D. (2013). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
- Elias, M. J. (2015). Social-Emotional Learning and Teacher Education. Teachers College Press.
- Saarni, C. (2002). The Development of Emotional Competence. Guilford Press.
- Hasanboeva Sh., To'raqulova N., Ibragimova G. (2020). Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
- Bar-On, R. (2010). Emotional Intelligence and Self-Perception. Psychology Press.
- Atakhujaeva, S. A. (2022). DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS' UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 317-319.
- Fayzullayev, M. (2023). O 'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK KONSTRUKSIYALARI. Академические исследования в современной науке, 2(19), 129-133.
- Ataxo'jayeva, S. (2023). EMPIRICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH LANGUAGE TEACHERS.
- Ataxo'jayeva, S. A. (2020). INGLIZ TILINI O'RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI. Science and Education, 1(1), 403-406.
- Shaxlo Anvarovna Ataxo'Jayeva (2023). O'QITUVCHILARINING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 111-115.
- Ataxo'jayeva, S. (2022). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE.
- Anvarovna, A. S. (2023). CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 169-172.
- Mirzamurodovich, F. M. (2023). CONCEPTS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN CONTINUOUS EDUCATION. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 495-497.
- Fayzullayev, M. M. (2022). DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF PSYCHOLOGICAL CHANGE. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 429–431. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2765>
- Fayzullayev, M. M. (2023). PSYCHOLOGICAL LITERACY AND ITS ASSESMENT OF IN YOUTH. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 170–172. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3358>
- Атаходжаева, Ш. А. (2025, October). Роль Информационных Технологий В Обществе. In International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 4, pp. 17-21).

Main Factors Affecting Creative Skills In Primary Education

Muhammadjonova Zarnigor Bakhtiyor qizi

Teacher of the Presidential School in Namangan

Abstract

This article analyzes the characteristics of creative thinking of primary school students, the factors of their psychological and pedagogical development, as well as the content of the process of forming creative thinking. The study systematically studied internal (motivational, emotional, intellectual) and external (teacher activity, educational environment, methodological approaches) factors affecting the thinking activity of students. It also highlights the role of interactive methods, the use of problem situations, innovative educational technologies, and an integrative approach in the development of creative thinking.

Keywords: creative thinking, primary education, thinking activity, creativity, motivation, emotional development, pedagogical conditions, problem-based learning, interactive methods, innovative approaches.

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkur xususiyatlari, ularning psixologik va pedagogik rivojlanish omillari, shuningdek, ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonining mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning tafakkur faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki (motivatsion, emotsional, intellektual) va tashqi (o'qituvchi faoliyati, ta'lim muhiti, metodik yondashuvlar) omillar tizimli o'rganilgan. Shuningdek, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlardan foydalanish, innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda integrativ yondashuvning o'rnini yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, tafakkur faoliyati, ijodkorlik, motivatsiya, emotsional rivojlanish, pedagogik shart-sharoitlar, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar.

Hozirgi zamon ta'limi o'quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularni hayotda uchraydigan muammolarga ijodiy yondasha oladigan, yangilik yarata oladigan, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashni talab qiladi. Ayniqsa, bu jarayon boshlang'ich ta'lim bosqichida muhim o'rin tutadi. Chunki aynan shu davrda bolaning asosiy shaxsiy va kognitiv (bilish) xususiyatlari shakllana boshlaydi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim jarayonida ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rganish pedagogik nazariy va amaliy jihatdan muhim masaladir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ularning samarali uyg'unligi ta'lim-tarbiyaviy natijalarning sifatli bo'lishini belgilaydi. Avvalo, o'quvchining psixologik holati — uning emotsional barqarorligi, qiziqish doirasi, mustaqil fikrlashga bo'lgan moyilligi, tashabbus ko'rsatish darajasi ijodiy faoliyatga kirishishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik omillar — o'qituvchining shaxsiy yondashuvi, ta'lim metodlari, interaktiv usullarni qo'llash darajasi, o'quv materialining mazmuni va uning o'quvchida qiziqish uyg'otish xususiyati ijodiy tafakkurni faollashtirishda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy muhit, ya'ni oila, tengdoshlar, maktab jamoasi, madaniy tadbirlar va texnologik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi ham o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muhitining erkinlikka asoslangani, bolalarda erkin fikrlash, tanqidiy yondashuv va yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini berishi natijasida ijodiy ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Shunday qilib, ijodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi muvozanat ta'lim-tarbiyaning sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda ijodiy ko'nikmalarning shakllanishiga bir qator omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. Psixologik omillar

Ijodiy ko'nikmalarning shakllanishida o'quvchining psixologik holati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixologik omillar ichida birinchi navbatda bolaning emotsional barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va tashabbuskorligi ajralib turadi. O'quvchining o'z fikrini erkin bayon qila olishi, savol bera olishi, yangicha g'oyalarni ilgari surishga urinishi — bular ijodiy fikrlash jarayonining boshlang'ich belgilaridir. Aksincha, doimiy tanqid ostida bo'lgan, qo'rquv va ishonchsizlik muhitida o'sgan bolada ijodiy faollik pasayadi.

Bundan tashqari, o'quvchining individual qiziqishlari va intellektual salohiyati ham muhim psixologik omillardandir. Har bir bolaning tasavvur darajasi, obrazli va mantiqiy fikrlash salohiyati turlicha bo'lib, bu jihatlar uning ijodiy yondashuvlarini belgilaydi. Masalan, o'yin orqali o'rganishni yoqtiradigan o'quvchiga muammoli vazifalarni didaktik o'yinlar orqali berish orqali ijodiy tafakkurni rag'batlantirish mumkin.

Shuningdek, bolaning o'zini qadrlashi, muvaffaqiyatga intilishi, mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan qobiliyati ham ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun psixologik tayanch hisoblanadi.

2.1- jadval. Psixologik omillarning ijodiy ko'nikmalarga ta'siri

Psixologik omillar	Ta'sir shakli	Ijodiy ta'siri	Salbiy ta'siri
Emotsional barqarorlik	Ruhiy holat	Ishonchli, faollik, quvonch, ilhom	Qo'rquv, ishonchsizlik, passivlik
O'ziga bo'lgan ishonch	Ichki motivatsiya	Tashabbuskorlik, ijodga intilish	Qo'rqoq, yangilikdan qochish
Tasavvur va obrazli fikrlash	Fantaziya asosida yangilik yaratish	Yangicha g'oyalar, erkin fikrlar	Stereotipli yondashuv, ijodiy to'siqlar
Mustaqil fikrlash	Qaror qabul qilish qobiliyati	Yangi echimlar taklif etish	Qaror qabul qilishda qiyinchilik

2. Pedagogik omillar

Ijodiy ko'nikmalar rivojida pedagogik omillar, ya'ni o'qituvchi shaxsiyati, uning yondashuv uslubi, dars jarayonini tashkil etish metodikasi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolani ilhomlantiruvchi, rag'batlantiruvchi, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi shaxs bo'lishi zarur. Darslarda savol-javob, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlash, loyiha asosida o'qitish, "aql hujumi" metodlari kabi usullardan foydalanish o'quvchilarda ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

Shuningdek, ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'qituvchining didaktik material tanlovi, o'quv faoliyatini tashkil etishdagi erkinlik darajasi, har bir o'quvchiga individual yondashuvi ham asosiy omillar hisoblanadi. Masalan, dars mavzusi doirasida o'quvchilarga mustaqil izlanish vazifalari berilishi, kichik loyihalarni tayyorlash topshiriqlari ularning mustaqil fikr yuritishini rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan berilayotgan baho, tanbeh yoki maqtoovning mazmuni ham o'quvchi psixikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Adolatli va motivatsion baholash tizimi ijodkorlikni kuchaytiradi, noto'g'ri yondashuv esa uni cheklaydi.

2.2-jadval. Pedagogik omillarning ijodiy rivojlanishga ta'siri

Pedagogik omillar	Ta'sir mexanizmi	Ijodiy natija
Interaktiv metodlar (munozara, loyiha)	Faollikni oshiradi	Mustaqil fikr, yangicha yechim topish
Rag'batlantirish (maqtoov, yutuqlar)	Ichki motivatsiyani kuchaytiradi	Tashabbus ko'rsatish, o'ziga ishonch
Erkinlik va tanlov imkoniyati	Shaxsiy fikrga hurmat	Erkin tafakkur, o'z pozitsiyasini himoya qilish

Differensial yondashuv	Individual imkoniyatlarni e'tiborga oladi	Har bir bolaning ijodiy salohiyati ochiladi
------------------------	---	---

3. Ijtimoiy-madaniy omillar

O'quvchining ijtimoiy muhitdagi o'rni, ya'ni oila, tengdoshlar, maktab jamoasi bilan bo'lgan munosabatlari ham ijodiy rivojlanishda muhim omildir. Oilada bolaga erkin fikr bildirishga imkon berilsa, uni eshitish va qo'llab-quvvatlash madaniyati mavjud bo'lsa, bunday bola maktabda ham faol va ijodiy bo'ladi. Aksincha, qat'iy nazorat ostida ulg'aygan, fikri e'tiborga olinmagan bola tashabbus ko'rsatishda qiynaladi.

Shuningdek, madaniy muhit — teatr, muzey, kutubxona, to'garaklar va san'at bilan bog'liq faoliyatlar bolalarning estetik didi va ijodiy salohiyatini oshiradi. Tengdoshlar bilan ijodiy hamkorlik qilish, guruhlarda ishlash, biror loyiha ustida birgalikda fikr almashish bolalarda nafaqat ijodiy ko'nikmani, balki ijtimoiy-emotsional intellektni ham shakllantiradi.

2.3-jadval. Ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri

Ijtimoiy omil	Ta'siri	Natijasi
Oiladagi muhit	Erkin, qo'llovchi / qat'iy va yopiq	Tashabbusli / ishonchsiz, sust fikrlovchi
Madaniy tadbirlarda ishtirok	San'at, teatr, kitobxonlik	Estetik did, tasavvur, keng dunyoqarash
To'garak va klublar	Qiziqishga mos faoliyat	Yangi qobiliyatlar, ijodiy ixtirolar
Tengdoshlar bilan muloqot	Hamkorlik, fikr almashish	Ijtimoiy va ijodiy tafakkur rivoji

4. Texnologik va ta'lim muhitiga oid omillar

Zamonaviy ta'limda texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Interaktiv doskalar, kompyuterlar, vizual taqdimotlar, animatsiyalar yordamida darslar o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ta'limiy dasturlar, mobil ilovalar, ta'limiy o'yinlar, ijodiy topshiriqlar beruvchi sun'iy intellekt vositalari (masalan, hix.ai, Khan Academy Kids) bolalarda yangicha fikrlashni rag'batlantiradi.

2.4-jadval. Texnologik vositalarning ijodga ta'siri

Vosita yoki metod	Ijodiy foydasi	Qo'llanish shakli
Multimedia taqdimotlar	Vizual tafakkurni faollashtiradi	Darslarda mavzuga oid video, rasm, slaydlar
Interaktiv dasturlar	O'yin orqali o'rganish	Scratch, Edugames, Smartboard
Elektron loyihalar	Dizayn va kompozitsiya ko'nikmasi	Posterlar, infografiklar, slaydlar tayyorlash
AI vositalari (masalan, hix.ai)	Yozish, hikoya tuzish, savol-javob	Mustaqil izlanish va ijodiy topshiriqlar

Ta'lim muhiti ijodiy rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Darslar qat'iy reja asosida emas, balki moslashuvchan va o'quvchining fikrini inobatga olgan holda olib borilishi, har bir bola o'zini namoyon eta oladigan imkoniyatga ega bo'lishi — bu jarayonda asosiy tamoyillardandir. Shuningdek, sinf xonalarining estetik jixatdan to'g'ri tashkil etilishi ham bolalarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.

5. O'qituvchi va ota-onaning hamkorligi

Ijodiy rivojlanish samarali bo'lishi uchun o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi uzviy hamkorlik muhimdir. Bola faqat maktabda emas, balki uy sharoitida ham ijodiy faoliyatga jalb qilinishi kerak. Ota-onalar tomonidan bolaga vaqt ajratish, kitob o'qitish, birgalikda chizish, qurish, hikoya tuzish kabi mashg'ulotlar orqali bolaning fantaziyasi va ijodiy tafakkuri mustahkamlanadi.

2.5-jadval. Ota-ona va maktab hamkorligi

Hamkorlik shakli	Foydasi	Natijasi
Uy vazifalarini birgalikda ko'rish	Bolaning faoliyati bilan qiziqish	Mas'uliyat hissi, ishonchli muloqot

Ijodiy topshiriqlarni qo'llab-quvvatlash	O'qituvchi topshiriqlarining davomchiligini ta'minlash	Mustahkam bilim, ijodiy rivoj
Madaniy tadbirlarda ishtirok	Bolaning ijtimoiy faolligi ortadi	O'zini erkin ifodalash ko'nikmasi

Ayniqsa, maktabda o'rgatilayotgan ijodiy mashg'ulotlarning uyda davom ettirilishi yoki ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bola uchun muhim motivatsiya manbaiga aylanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ularning samarali uyg'unligi ta'lim-tarbiyaviy natijalarning sifatli bo'lishini belgilaydi. Avvalo, o'quvchining psixologik holati — uning emotsional barqarorligi, qiziqish doirasi, mustaqil fikrlashga bo'lgan moyilligi, tashabbus ko'rsatish darajasi ijodiy faoliyatga kirishishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik omillar — o'qituvchining shaxsiy yondashuvi, ta'lim metodlari, interaktiv usullarni qo'llash darajasi, o'quv materialining mazmuni va uning o'quvchida qiziqish uyg'otish xususiyati ijodiy tafakkurni faollashtirishda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy muhit, ya'ni oila, tengdoshlar, maktab jamoasi, madaniy tadbirlar va texnologik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi ham o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muhitining erkinlikka asoslangani, bolalarda erkin fikrlash, tanqidiy yondashuv va yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini berishi natijasida ijodiy ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Shunday qilib, ijodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi muvozanat ta'lim-tarbiyaning sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Demak, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u psixologik, pedagogik, ijtimoiy-madaniy, texnologik va oilaviy omillarning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Har bir omil o'z navbatida o'quvchining tafakkuriga, hissiyotiga va shaxsiy rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Agar bu omillar uyg'un holda ishlatilsa, bola ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor va erkin shaxs sifatida kamol topadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limda ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu yondashuv ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilaridan – o'qituvchi, o'quvchi va ota-onadan faol ishtirokni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Cantor N., Kihlstrom J.F. Social intelligence and cognitive assessments of personality. //Wyer R. S. & Srull T.K. Advances in Social Cognition. Hillsdale, N.J.:Erbium, 1989. – Vol.2.–P. 1–59.

Raven J.C. Guide to the Progressive Matrices. London: Lewis. 1960.

Rogers C., ed. "Carl Rogers: Student-Centered Learning." Project Innovation, a Monograph to "Education". 1996.

"Psychology of Communication." General edition of A.A. Bodalev – "Cogito -Centre ", 2011.6. Yermientaeva A.R. "Foundations of Students' Psychological Training." – Ust-Kamenogorsk, 2007-p.404.

Thordnik E.L. "Intelligence and its Uses//Harper's Magazine. 1920. P. 227–235

Eysenck H.J., Barrett P. "Psychophysiology and the Measurement of Intelligence."//Reynolds C.R., Willson V. (eds.) "Methodological and Statistical Advances in the study of individual differences."N.Y.: Plenum Press, 1985.

Atakhujaeva, S. A. (2022). DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS'UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 317-319.

Fayzullayev, M. (2023). O 'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK KONSTRUKSIYALARI. Академические исследования в современной науке, 2(19), 129-133.

Ataxo'jayeva, S. (2023). EMPIRICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH LANGUAGE TEACHERS.

- Ataxo'jayeve, S. A. (2020). INGLIZ TILINI O'RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI. *Science and Education*, 1(1), 403-406.
- Shaxlo Anvarovna Ataxo'Jayeve (2023). O'QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 4 (TMA Conference), 111-115.
- Ataxo'jayeve, S. (2022). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE.
- Anvarovna, A. S. (2023). CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 169-172.
- Mirzamurodovich, F. M. (2023). CONCEPTS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN CONTINUOUS EDUCATION. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 495-497.
- Fayzullayev, M. M. (2022). DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF PSYCHOLOGICAL CHANGE. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 429–431. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2765>
- Fayzullayev, M. M. (2023). PSYCHOLOGICAL LITERACY AND ITS ASSESMENT OF IN YOUTH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 170–172. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3358>

Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher In The Conditions Of Digital Education

Atakho'jayeve Shakhlo Anvarovna

Associate Professor of the Department of
Pedagogy and Psychology of the University of Business and Science,
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology,
shakhloataxujayeve@gmail.com

Abstract

This article analyzes the methods and effective practical mechanisms for forming the socio-emotional competence of a foreign language teacher in the conditions of digital education. The article proposes strategies for developing teachers' emotional awareness, empathy and professional stress management using digital resources (video lessons, online interactive platforms, pedagogical chatbots and virtual classrooms). The article also presents the results of a small pilot study (a questionnaire among teachers) and discusses the positive impact of digital tools. The work concludes with practical recommendations and methodological guidelines.

Keywords: digital education; socio-emotional competence; foreign language teacher; empathy; neuropedagogy; professional development; online pedagogy.

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini shakllantirish usullari va samarali amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi. Maqolada digital-resurslar (videodarslar, onlayn interaktiv platformalar, pedagogik chatbotlar va virtual sinflar) yordamida o'qituvchilarning emotsional ongini rivojlantirish, empatiya va kasbiy stressni boshqarish bo'yicha strategiyalar taklif etilgan. Shuningdek, maqolada kichik pilot tadqiqot natijalari (o'qituvchilar orasida so'rovnomma) keltirilib, raqamli vositalarning ijobiy ta'siri haqida muhokama yuritiladi. Ish amaliy tavsiyalar va metodik yo'riqnomalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim; sotsial-emotsional kompetensiya; chet tili o'qituvchisi; empatiya; neyropedagogika; professional rivojlanish; onlayn pedagogika.

Kirish. Bugungi globallashtirish jarayoni ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar o'qitish jarayonining barcha bosqichlariga singib kirib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya shakllarini, ta'limning mazmunini va baholash tizimini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishda bu jarayon yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki chet tili fani tabiatan kommunikativ, interaktiv va ijtimoiy-emotsional faoliyatni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida chet tili o'qituvchisi nafaqat til bilimlarini beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi shaxs sifatida qaralmoqda. Shu bois, o'qituvchining sotsial-emotsional kompetentligini (SEK) shakllantirish, ya'ni o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalar emotsiyalarini to'g'ri talqin etish va ijobiy ijtimoiy muhit yaratish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli ta'lim esa bu jarayonda ikki tomonlama rol o'ynaydi: bir tomondan, u yangi imkoniyatlar yaratadi — virtual sinflar, interaktiv platformalar, multimediyalar resurslari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari o'qituvchiga o'z faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi; ikkinchi tomondan, u yangi chaqiriqlarni ham yuzaga keltiradi — masalan, onlayn muloqotda empatiya yo'qolishi, emotsional aloqa susayishi, shaxslararo masofa ortishi kabi holatlar. Shu sababli, o'qituvchining raqamli muhitda ishlash kompetensiyasi bilan bir

qatorda, uning sotsial-emotsional kompetensiyasini ham rivojlantirish zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda.

Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchidan o'zini doimiy ravishda yangilab borishni, o'z his-tuyg'ularini boshqarishni, stressli vaziyatlarda muvozanatni saqlashni va o'quvchilar bilan insoniy, ishonchli aloqani virtual sharoitda ham yo'lga qo'yishni talab etadi. Bu esa nafaqat texnik yoki metodik, balki psixologik tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, zamonaviy chet tili o'qituvchisi raqamli kompetensiyaga ega bo'lish bilan birga, yuqori darajadagi sotsial-emotsional madaniyat sohibi bo'lishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, sotsial-emotsional kompetensiyani raqamli ta'lim bilan uyg'unlashtirish o'qituvchining kasbiy rivojlanishida yangi paradigma sifatida shakllanmoqda. Chet tili o'qituvchisi uchun bu kompetensiya dars jarayonida emotsional uyg'unlikni ta'minlash, o'quvchilarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, stressni kamaytirish va o'zaro ishonchli hamkorlik muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, raqamli ta'lim sharoitida sotsial-emotsional kompetensiyani shakllantirish masalasi nafaqat individual pedagogik sifat, balki ta'lim tizimining umumiy sifat ko'rsatkichiga aylangan. Ushbu maqolada raqamli muhitda chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish yo'llari, uning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari hamda amaliy yechimlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Sotsial-emotsional kompetensiya (SEK) masalasi so'nggi yillarda ta'lim psixologiyasi, pedagogika va neyropedagogika yo'nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. D. Goleman (1995; 2013) o'zining "Emotional Intelligence" asarlarida sotsial-emotsional intellektni insonning hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalar his-tuyg'ularini tushunish va ular bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, emotsional aql inson muvaffaqiyatining 80 foizini belgilaydi, intellektual ko'rsatkich esa faqat 20 foiz ulushni tashkil etadi. Shunday ekan, o'qituvchi uchun ham sotsial-emotsional kompetensiya kasbiy yetuklikning ajralmas tarkibiy qismidir.

M. Elias va hamkorlari (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa sotsial-emotsional kompetensiya ta'lim muassasalarida nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki pedagogik jarayonning umumiy samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, ta'limda emotsional ong, empatiya, stressni boshqarish va ijobiy muloqot madaniyatini rivojlantirish — ijtimoiy-psixologik muhitni barqarorlashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. C. Saarni (2002) ham o'z izlanishlarida shaxsning emotsional kompetentligini madaniy kontekstda shakllanadigan murakkab jarayon sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, inson his-tuyg'ularini to'g'ri ifoda etish, boshqalar emotsiyalarini anglay olish va ularga mos tarzda munosabat bildirish ijtimoiy adaptatsiyaning eng muhim ko'rinishlaridan biridir.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari ham bu yo'nalishdagi fikrlarni yanada boyitadi. Sh. Hasanboeva, N. To'raqulova, G. Ibragimova kabi mahalliy pedagoglar o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda sotsial va emotsional jihatlarining ahamiyatiga e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, o'qituvchining ijobiy emotsional kayfiyati, o'zini tuta bilish madaniyati va empatik muloqot qobiliyati o'quvchilarning motivatsiyasi va darsdagi faol ishtirokini kuchaytiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi stressli vaziyatlarda muvozanatni saqlay olgan taqdirdagina o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va raqamli muhitda ham ruhiy barqarorlikni ta'minlay oladi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi sotsial-emotsional kompetensiyani shakllantirishda yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi muammolarni ham keltirib chiqardi. Zamonaviy raqamli platformalar — Moodle, Coursera, Edmodo, Google Classroom, Zoom va boshqalar — o'qituvchilarga o'z ustida ishlash, masofaviy o'qitish jarayonida kommunikativ va emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn treninglar, raqamli simulyatsiyalar, virtual forumlar va pedagogik tahlil vositalari o'qituvchining reflektiv qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'limda empatiya, ijtimoiy aloqa va hissiy bog'lanishni saqlash murakkabroq kechadi

(OECD, 2019; UNESCO, 2020). Bu esa sotsial-emotsional kompetensiyani raqamli pedagogika bilan integratsiyalash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda intervensiya dasturlari (intervention programs) muhim yo'nalish sifatida alohida o'rganilmoqda. Bunday dasturlar asosan professional rivojlanish kurslari orqali o'qituvchilar uchun sotsial-emotsional treninglarni o'z ichiga oladi. Mindfulness mashqlari, emotsional regulyatsiya texnikalari, reflektiv jurnal yuritish, onlayn peer-feedback kabi vositalar o'qituvchilarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'quvchilar bilan sog'lom muloqot o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekani isbotlangan.

Shu bilan birga, xalqaro manbalarda raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchilarning sotsial-emotsional kompetensiyasini baholash mezonlari, indikatorlari va diagnostika vositalari ishlab chiqilayotganligi ham qayd etiladi. Bu mezonlar, asosan, o'qituvchining emotsional anglash, emotsional regulyatsiya, empatiya, stressga chidamlilik va raqamli muloqot etikasi kabi komponentlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, raqamli ta'lim vositalari yordamida sotsial-emotsional kompetensiyani shakllantirish integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Bunda nafaqat texnik, balki psixologik, metodik va pedagogik jihatlar uyg'un holda olib borilishi lozim. O'qituvchining raqamli kompetensiyasi va emotsional barqarorligini birgalikda rivojlantirish, zamonaviy ta'lim sifatining muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, sotsial-emotsional kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan raqamli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni metodik qo'llanmalarga integratsiya qilish hozirgi ta'lim tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Jadval 1. O'qituvchilarning sotsial-emotsional kompetensiyaning turli komponentlariga o'zlarini baholashi (1—past, 5—yuqori). (N=40, o'rtacha qiymatlar)

Komponentlar	O'rtacha (M)	Standart og'ish (SD)
Emotsiyalarni anglash	4.05	0.62
Emotsiyalarni boshqarish	3.68	0.74
Empatiya (o'quvchilarga nisbatan)	3.92	0.69
Stressni boshqarish	3.40	0.85
Onlayn muhitda muloqot (virtual empatiya)	3.25	0.88
Pedagogik refleksiya	3.75	0.71

O'qituvchilar o'rtacha emotsiyalarni anglash va empatiyada yaxshi baho bergan, ammo stressni boshqarish va onlayn muhitda empatiya ko'nikmalarida pastroq ko'rsatkichlar kuzatilgan. Bu raqamli sharoitda maxsus treninglar va qo'llab-quvvatlovchi vositalar zarurligini aks ettiradi.

Asosiy qism. Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangi imkoniyatlar yaratib, shu bilan birga, ularning shaxsiy va emotsional tayyorgarligiga ham yuqori talab qo'ymoqda. Sotsial-emotsional kompetensiyani (SEK) rivojlantirish jarayonida raqamli vositalardan maqsadli va tizimli foydalanish o'qituvchining nafaqat kasbiy mahoratini, balki o'zini anglash, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash va stressli vaziyatlarda ijobiy yechim topish qobiliyatini ham mustahkamlaydi. Quyida chet tili o'qituvchilari uchun ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali yo'llar tizimli tarzda yoritiladi.

1. Professional onlayn-treninglar va mikro-kurslar. Raqamli ta'lim sharoitida sotsial-emotsional kompetensiyani shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri — bu professional onlayn-treninglar va qisqa muddatli mikro-kurslardir. Ushbu kurslar o'qituvchilarda empatiya, emotsional regulyatsiya, onlayn kommunikatsiya etikasi, stressni boshqarish (mindfulness) va pedagogik refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Mazkur treninglar, odatda, 6 haftalik modul ko'rinishida tashkil etiladi. Har bir modul 30–60 daqiqalik videodarslar, interaktiv topshiriqlar, reflektiv forumlar va onlayn muloqot mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Trening yakunida o'qituvchilar o'z hissiy holatini kuzatish (self-

monitoring) va nazorat qilish (self-regulation) ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shu tariqa, raqamli vositalar nafaqat kasbiy bilimni, balki emotsional barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

2. Virtual sinflar va roll-pley (simulyatsiya) platformalari. Virtual ta'lim texnologiyalari — masalan, VR/AR (virtual va kengaytirilgan reallik) yoki video-simulyatsiyalar — o'qituvchilarga real ta'lim vaziyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Bunday platformalarda o'qituvchi turli psixologik holatlarga ega o'quvchilar bilan muloqot qilish, konfliktlarni hal etish, motivatsiyani oshirish yoki stressli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash kabi ko'nikmalarni xavfsiz sharoitda mashq qilishi mumkin. Bu yondashuvning asosiy afzalligi — xato qilishdan qo'rqmasdan o'rganish imkoniyati mavjudligidir. Virtual sinfda har bir vaziyat qayta tahlil qilinadi, bu esa refleksiya va o'z-o'zini baholash imkonini kengaytiradi. Shunday qilib, simulyatsion o'qitish o'qituvchining real hayotdagi stressni yengish va muammolarga ijodiy yondashish qobiliyatini oshiradi.

3. Peer-to-peer mentoring va onlayn hamkorlik tizimi. Sotsial-emotsional kompetensiya faqat individual jarayon emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir mahsulidir. Shu boisdan, o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va tajriba almashishni yo'lga qo'yish — raqamli ta'limning muhim elementi hisoblanadi. Peer-to-peer (tengdoshlar o'rtasida) mentoring dasturlari doirasida o'qituvchilar haftalik onlayn-klublarda, video-muhokamalarda yoki kuzatuvli dars almashinuvi (video sharing) orqali o'zaro o'rganadilar. Bu jarayon natijasida pedagogik refleksiya kuchayadi, yangi g'oyalar almashinuvi sodir bo'ladi, va eng muhimi — o'qituvchilarda o'zaro ishonch, hamjihatlik va kasbiy birdamlik muhitini yaratadi. Bunday onlayn hamkorlik, o'z navbatida, o'qituvchilarning emotsional toliqish (burnout) darajasini kamaytiradi va kasbiy motivatsiyani oshiradi.

4. Pedagogik analitika va raqamli xulosa vositalari. Zamonaviy raqamli platformalar (masalan, Edmodo, Google Classroom, Microsoft Teams) o'qituvchiga nafaqat dars jarayonini boshqarish, balki o'quvchi faolligi, motivatsiyasi va hissiy holatini ham monitoring qilish imkonini beradi. Pedagogik analitika vositalari orqali o'quvchi faoliyatining psixologik ko'rsatkichlari (qatnashuv darajasi, javob sifati, onlayn xulq-atvor modeli) aniqlanadi va avtomatik tahlil qilinadi. Bu ma'lumotlar asosida tizim o'qituvchiga individual feedback, maslahatlar yoki tavsiyalar shaklida yordam beradi. Biroq, bunday raqamli kuzatuv vositalaridan foydalanishda ma'lumotlarning maxfiyligi, etik tamoyillar va foydalanuvchi roziligi qat'iy ta'minlanishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan tahliliy monitoring o'qituvchining emotsional sezgirligini oshiradi va pedagogik qarorlarni yanada aniqroq qabul qilishga yordam beradi.

5. Integratsiyalashgan (gibrid) o'qitish metodikalari. Raqamli ta'limning muvaffaqiyati — an'anaviy va onlayn komponentlarning uyg'unligida. Shuning uchun, gibrid o'qitish modeli sotsial-emotsional kompetensiyani rivojlantirish uchun eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bunda har bir darsda qisqa, ammo maqsadli SEK mashqlari joriy etiladi: masalan, dars boshida 3–5 daqiqalik "emotional check-in" (bugungi kayfiyatni ifodalash), dars oxirida esa refleksiv yozuv yoki mini-jurnal to'ldirish. Bu usul o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi emotsional aloqani mustahkamlaydi, o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifodalash va o'z holatini tahlil qilish madaniyatini shakllantiradi. Natijada, ta'lim jarayoni nafaqat bilimga, balki hissiy barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikka ham xizmat qiladi.

6. Onlayn resurslar va didaktik materiallardan foydalanish. Raqamli ta'lim platformalari o'qituvchiga ijodiy yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Chet tili o'qituvchilari uchun emotsional hikoyalar, videotsenariylar, interaktiv topshiriqlar, audio-meditatsiyalar va refleksiv mashqlar SEKni rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi. Bunday materiallar nafaqat til o'rgatish maqsadiga xizmat qiladi, balki o'quvchilarda hissiy sezgirlik, empatiya va o'zaro tushunish madaniyatini shakllantiradi.

O'qituvchi ushbu resurslardan foydalanishda ularni o'quvchilarning yosh, madaniy va psixologik xususiyatlariga moslashtirishi lozim. Shu tariqa, har bir dars nafaqat lingvistik mahoratni oshirish, balki shaxsiy rivojlanish, o'zini anglash va emotsional yetuklikni tarbiyalashga qaratiladi.

Yuqorida keltirilgan yo'llar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim sharoitida chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetensiyasini shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda raqamli vositalar o'qituvchining emotsional madaniyatini, stressga chidamliligini, kommunikativ sezgiriligini va kasbiy refleksiyasini rivojlantiruvchi qudratli vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Integratsiyalashgan raqamli yondashuvlar yordamida o'qituvchi nafaqat o'z hissiy barqarorligini saqlaydi, balki o'quvchilar uchun ijobiy psixologik muhit yaratib, ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadi. Shu sababli, raqamli vositalar yordamida SEKni rivojlantirish zamonaviy pedagogning asosiy kasbiy zaruratiga aylanmoqda.

Xulosa. Raqamli ta'lim sharoitida chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Chunki bugungi pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli muhitda o'quvchi bilan hissiy aloqa o'rnatishga, emotsional barqarorlikni saqlaydigan va o'z shaxsiy holatini boshqarishga qodir mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli treninglar, virtual simulyatsiyalar, peer-mentoring (hamkasblar bilan o'zaro o'rganish) va pedagogik analitika vositalari chet tili o'qituvchilari uchun sotsial-emotsional kompetensiyani rivojlantirishda samarali yo'nalishlardir. Ushbu vositalar o'qituvchining emotsional sezgiriligi, refleksiyasi, stressni boshqarish, empatiya va kommunikativ barqarorlik ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Raqamli platformalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar nafaqat o'qituvchining kasbiy o'sishini ta'minlaydi, balki o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilash, o'zaro tushunish madaniyatini shakllantirish hamda dars jarayonida hissiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Natijada, ta'lim sifati, o'quvchi faolligi va motivatsiyasi oshadi.

Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishda texnik, metodik va etik jihatlar alohida e'tibor qaratish lozim. O'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli stress (digital overload)ning oldini olish hamda onlayn muloqot madaniyatini rivojlantirish zarur.

Raqamli ta'lim sharoitida sotsial-emotsional kompetensiyani rivojlantirish faqat individual pedagogik mahorat emas, balki institutsional strategiya darajasida amalga oshirilishi kerak. Shu maqsadda, oliy ta'lim muassasalari va pedagoglarni qayta tayyorlash markazlarida SEKni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus raqamli trening dasturlari, metodik qo'llanmalar va onlayn platformalar ishlab chiqilishi lozim.

Umuman olganda, raqamli ta'lim vositalari asosida o'qituvchilarning sotsial-emotsional kompetensiyasini shakllantirish:

o'qituvchi shaxsida ijtimoiy mas'uliyat va hissiy sezgirlikni rivojlantiradi;

ta'lim jarayonida o'zaro hurmat, empatiya va ishonch muhitini mustahkamlaydi;

o'quvchilarda ijobiy psixologik kayfiyatni saqlaydi;

va eng muhimi — raqamli pedagogikaning insonparvarlik tamoyillarini ro'yobga chiqaradi.

Shunday qilib, sotsial-emotsional kompetensiyani raqamli ta'lim vositalari orqali shakllantirish zamonaviy pedagogik amaliyotda nafaqat innovatsion yondashuv, balki insoniy qadriyatlarni tiklovchi ta'lim strategiyasi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

Goleman, D. (2013). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

Elias, M. J. (2015). Social-Emotional Learning and Teacher Education. Teachers College Press.

Saarni, C. (2002). The Development of Emotional Competence. Guilford Press.

Hasanboeva Sh., To'raqulova N., Ibragimova G. (2020). Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

Bar-On, R. (2010). Emotional Intelligence and Self-Perception. Psychology Press.

- Atakhujaeva, S. A. (2022). DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS' UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 317-319.
- Fayzullayev, M. (2023). O 'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK KONSTRUKSIYALARI. Академические исследования в современной науке, 2(19), 129-133.
- Ataxo'jayeva, S. (2023). EMPIRICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH LANGUAGE TEACHERS.
- Ataxo'jayeva, S. A. (2020). INGLIZ TILINI O'RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI. Science and Education, 1(1), 403-406.
- Shaxlo Anvarovna Ataxo'Jayeva (2023). O'QITUVCHILARINING SOTSIOLOGIY VISTIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 111-115.
- Ataxo'jayeva, S. (2022). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE.
- Anvarovna, A. S. (2023). CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 169-172.
- Mirzamurodovich, F. M. (2023). CONCEPTS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN CONTINUOUS EDUCATION. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 495-497.
- Fayzullayev, M. M. (2022). DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF PSYCHOLOGICAL CHANGE. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 429-431. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2765>
- Fayzullayev, M. M. (2023). PSYCHOLOGICAL LITERACY AND ITS ASSESMENT OF IN YOUTH. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 170-172. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3358>
- Атаходжаева, Ш. А. (2025, October). Роль Информационных Технологий В Обществе. In International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 4, pp. 17-21).

Символическое Кодирование Социальной И Моральной Реальности В Роме «Мираж» Г. В. Пряхина

Абдуллаева Чаросхон Махамадсоли кизи

самостоятельный соискатель,
Ферганский государственный университет

Аннотация

В статье анализируется символическое кодирование социальной и моральной реальности в романе Г. В. Пряхина «Мираж». Утверждается, что сновидения в произведении функционируют как особая семиотическая система, в которой индивидуальные переживания героя переплетаются с коллективной травмой эпохи. Через символику сна — закрытых памятников, мёртвых насекомых, ободранных животных — автор передаёт кризис идеологии, разложение моральных ориентиров и поиск нравственной опоры в условиях исторического перелома.

Ключевые слова: Георгий Пряхин, «Мираж», символика, сновидения, социальная реальность, моральный кризис, эзопов язык.

Роман Георгия Владимировича Пряхина «Мираж» (1995) представляет собой не только художественное свидетельство эпохи, но и сложную символическую систему, в которой личное и историческое, моральное и социальное тесно переплетены. Особую роль в этой системе играют сновидения, которые у Пряхина выступают не как иллюстративные вставки, а как полноценный семиотический код, позволяющий расшифровать скрытые слои социальной и моральной реальности конца советского и начала постсоветского времени. Через символику сна автор передаёт не только внутренние конфликты героя, но и коллективные травмы, идеологические сдвиги и этические дилеммы целого поколения.

yuqori samarali pedagogik texnologiyalarni loyihalash va amalga oshirish tajribasini talab qiladi. O'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida matn bilan ishlashning eng samarali usullarini tanlay olishi, o'quvchilarni tahliliy va sintezlovchi fikrlashga undaydigan topshiriqlarni ishlab chiqishi, badiiy matn bilan ishlash orqali adabiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishi lozim; bu esa uning metodik kompetentligining asosini tashkil etadi. Pedagogning kompetentligi innovatsion yondashuvlarga ochiqlik, kasbiy rivojlanishga doimiy intilish va ta'lim natijalariga mas'uliyat bilan yondashishda namoyon bo'ladi.

O'qituvchining muloqot madaniyati esa pedagogik jarayonning ruhiy iqlimini belgilovchi va o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Muloqot madaniyati pedagogning o'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarni pedagogik odob, axloq, etika normalariga muvofiq, hurmat, dilkashlik va hamkorlik ruhida tashkil eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Demokratik uslubda tashkil etilgan pedagogik muloqot o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyani oshiradi, o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon bayon qilish, o'zgalar fikrini anglash, munozaralarda ishtirok etish kabi nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, o'qish savodxonligining ajralmas qismi bo'lgan kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Kommunikativ kompetensiya esa lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy va kompensatsiya kompetensiyalarining yig'indisidan iborat bo'lib, o'quvchiga turli muloqot vazifalarini chet tili (yoki ona tili) yordamida hal qilish qobiliyatini beradi. O'qituvchining yuksak muloqot madaniyati, ayniqsa, muammoli vaziyatlarni pedagogik deontologiya qoidalariga rioya qilgan holda hal qilish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularga nisbatan shaxsan yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash orqali namoyon bo'ladi. Pedagogning muloqot etikasiga rioya qilishi, ma'naviy qiyofasi va axloqiy fazilatlarini ta'lim oluvchilar uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi, sinfdagi ishonchli va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi. Bunday muhitda o'quvchilar xatolardan qo'rqmasdan o'qishga, savollar berishga va matn mazmunini chuqur o'zlashtirishga intiladi, bu esa o'qish savodxonligining yanada yuqori bosqichiga olib chiqadi.

O'qish savodxonligini shakllantirishda pedagogik kompetensiyaning namoyon bo'lishi – bu o'qituvchining o'quv materialini shunchaki yetkazishdan ko'ra ko'proq narsani anglatadi; u o'quvchida mustaqil fikrlash, axborotni izlash va baholash ko'nikmalarini uyg'otishni, ularni tanqidiy yondashuvga o'rgatishni talab qiladi. Pedagogning AKT kompetentligi matnlar bilan ishlashda zamonaviy raqamli resurslar, interaktiv usullar va multimedia vositalaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Xususan, PISA tadqiqotlari ta'lim sifatining asosiy mezonlaridan biri sifatida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini ko'rsatadi, chunki aynan kompetent o'qituvchi ta'limdagi global o'zgarishlarga (masalan, o'qitishdan o'qishga o'tish) adekvat javob bera oladi. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy kompetentligi ta'limda integratsiyalashgan yondashuvlarni (masalan, CLIL) qo'llashda, fanlararo bog'liqliklarni o'rnatishda va o'quvchilarni turli bilim sohalaridagi matnlar bilan ishlashga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Bu o'qish savodxonligining asosi bo'lgan matn turlarini tushunish va ulardan turli maqsadlarda foydalana olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligini yuqori darajada shakllantirishda o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi va muloqot madaniyati bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega, ammo muloqot madaniyati past bo'lgan o'qituvchi o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rната olmaydi va sinfdagi ijobiy o'quv muhitini yarata olmaydi, natijada o'qish savodxonligini shakllantirishdagi uning salohiyati cheklanadi. Aksincha, yetarli darajadagi muloqot madaniyatiga ega, ammo metodik va didaktik kompetensiyasi sust bo'lgan o'qituvchi matn bilan ishlashning zamonaviy usullarini qo'llay olmaydi, o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda qiynaladi, bu esa o'qish savodxonligining faqat yuzaki qatlamini shakllantirish bilan cheklanib qolishga olib keladi. Shuning uchun, bu ikki jihatning uyg'unligi – o'qituvchining

chuqur kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda o'zaro hurmatga asoslangan, etik va samarali muloqot qobiliyatining birgalikda namoyon bo'lishi o'quvchilarning o'qish savodxonligini to'laqonli, barqaror va sifatli shakllantirishning asosiy kafolati hisoblanadi. O'qituvchining doimiy kasbiy rivojlanishi, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va o'quvchilarga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashi, shuningdek, pedagogik deontologiya talablariga rioya qilgan holda muloqotni tashkil etishi – zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O'qituvchining pedagogik kompetensiyasi va muloqot madaniyatini muntazam oshirib borish – bu o'z navbatida, o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish orqali mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan strategik investitsiya sanaladi, chunki aynan savodxon shaxs bugungi tez o'zgaruvchan axborot jamiyatida muvaffaqiyatga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I.L. Bim, Kommunikativ kompetensiya va uning tarkibiy qismlari haqidagi qarashlari.

T.A. Pirkova, Kommunikativ kompetensiyaning tarkibi.

V.V. Serikov, Pedagogik faoliyatning kompetentlik tushunchasi orqali ifodalanadigan yangi sifati.

YuNESKO, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fani o'qituvchilari uchun tavsiyalari (AKT kompetentlik standarti).

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti (Ona tili va o'qish savodxonligi fanining maqsadi).

Modeling And Forecasting Financial Economic Indicators Of Manufacturing Enterprises

Tokhirov Shodiyor Zafar oglu

Assistant, Department of Econometrics, TDIU

Annotation

This article examines the issues of modeling and forecasting the financial and economic indicators of manufacturing enterprises. In particular, the essence of the concepts of modeling and forecasting is revealed, and their significance in increasing the efficiency of production processes is analyzed. The financial indicators of enterprises in the garment industry—one of the most widespread production sectors—are studied analytically, and practical examples of modeling based on these indicators are presented. Based on the research findings, ways to improve the processes of modeling and forecasting financial and economic indicators are identified, and the role of information technologies in this field is specifically emphasized.

Keywords: financial and economic indicators, forecasting, planning, manufacturing enterprises, financial analysis, information technologies, artificial intelligence, management, risk, efficiency.

Ishlab Chiqarish Korxonalarining Moliyaviy Iqtisodiy Ko'rsatkichlarini Modellashtirish Hamda Prognozlar Qilish

Annotatsiya

Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini modellashtirish hamda ularni prognozlash masalalari ko'rib chiqiladi. Xususan, modellashtirish va prognozlash tushunchalarining mohiyati ochib berilib, ularning ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Eng ommabop ishlab chiqarish yo'nalishlaridan biri bo'lgan kiyim-kechak sanoati korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliy jihatdan o'rganilib, ular asosida modellashtirishning amaliy misollari keltiriladi. Tadqiqot natijalari asosida moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni modellashtirish va prognozlash jarayonlarini takomillashtirish yo'llari aniqlanadi hamda ushbu sohada axborot texnologiyalarining tutgan o'rnini alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'z: moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar, prognozlash, rejalashtirish, ishlab chiqarish korxonalari, moliyaviy tahlil, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, boshqaruv, risk, samaradorlik.


Hozirgi kunda har bir zamonaviy ishlab chiqarish korxonasining muvaffaqiyati zahirida kuchli moliyaviy-iqtisodiy tahlil, modellashtirish tizimi hamda asosli prognozlash qobiliyatining shakllanganligi yotadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar sonining ortishi raqobatni kuchaytirayotgan bo'lsa-da, barcha subyektlarning barqaror rivojlanishga erisha olmayotgani kuzatilmogda. Buning asosiy sabablari qatorida moliyaviy jarayonlarni yetarli darajada modellashtirmaslik, potensial risklarni hisobga olmaslik va istiqbolli prognozlar ishlab chiqilmasligi turadi. Shu sababli, har qanday ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishdan avval moliyaviy modellashtirish va prognozlash tamoyillarini egallash, ularning amaliy ahamiyatini to'liq anglash zarur.

Moliyaviy modellashtirish – bu real iqtisodiy holatni matematik shaklda aks ettiruvchi abstrakt model yaratish jarayonidir. Bunday model korxonaning aktivlari, daromadlari, xarajatlari, foyda marjasi yoki investitsion loyihalarining kelajakdagi natijalarini miqdoriy ko'rinishda baholashga xizmat qiladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yangi mahsulot liniyasini joriy etmoqchi bo'lsa, moliyaviy model yordamida xomashyo narxlari, ishlab chiqarish quvvati, marketing xarajatlari va taxminiy sotuv hajmini hisobga olib, kutilayotgan foyda darajasi aniqlanadi. Bu

jarayon investitsiya samaradorligini baholash, qo'shimcha kapital jalb etish yoki xarajatlarni optimallashtirishda muhim strategik vosita hisoblanadi.

Prognozlash tushunchasi moliyaviy modellashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, mavjud statistik ma'lumotlar va tarixiy tendensiyalar asosida kelajak natijalarini oldindan belgilash jarayonini anglatadi. Umumiy ma'noda prognozlash har bir inson hayotida uchraydigan hodisa bo'lib, kunlik ob-havo prognozidan tortib, shaxsiy byudjet rejalashtirishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Ishlab chiqarish korxonalarida esa prognozlash jarayoni ancha murakkab iqtisodiy mexanizmlarga asoslanadi. Masalan, kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxona mavsumiy talabni hisobga olgan holda 6 yoki 12 oy oldindan mahsulot ishlab chiqarish rejasini tuzishi lozim. Agar korxona qishga mo'ljallangan mahsulotlarni yoz faslida tayyorlab qo'ymasa, bozor talabi yuqori bo'lgan davrda raqobatchilarga boy berishi mumkin. Shuningdek, xomashyo narxlarining global bozor tebranishiga bog'liqligi sababli paxta, mato narxlaridagi kutilmagan oshish ishlab chiqarish xarajatlarning o'sishiga olib kelishi mumkin. Ana shunday xavflarni oldindan aniqlash va mos choralar ko'rish prognozlashning asosiy vazifasidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, moliyaviy modellashtirish va prognozlash — bu faqat nazariy jarayon emas, balki korxona barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan amaliy boshqaruv qurolidir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirish uchun axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili (data analytics) kabi zamonaviy vositalardan faol foydalanishi talab etiladi. Natijada, moddiy resurslarni tejash, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, foydani oshirish va eng muhimi — strategik boshqaruv qarorlarini asoslash imkoniyati vujudga keladi. Demak, modellashtirish va prognozlash bilimlariga ega bo'lmagan korxona bozor sharoitida uzoq muddatli raqobat ustunligini saqlay olmaydi.

Raqobat keskinlashgan bozor iqtisodiyotida muvaffaqiyat tasodifiy jarayon emas, balki tizimli moliyaviy modellashtirish va aniq prognozlash mexanizmlariga asoslangan boshqaruv natijasidir. Samsung va Nokia kompaniyalari misolida ushbu omillarning mavjudligi yoki mavjud emasligi natijasida yuzaga kelgan strategik farqlar yaqqol namoyon bo'ladi. Har ikkisi mobil texnologiya sanoatida yetakchi sifatida shakllangan bo'lsa-da, ularning rivojlanish trayektoriyasi tubdan farq qilgan. Samsung o'z faoliyatining dastlabki bosqichlaridanoq ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, bozor dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish, talab-taklif muvozanatini modellashtirish kabi mexanizmlarni joriy etgan. Kompaniya ichki resurs taqsimoti, investitsiya oqimlari va ishlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirishda statistik tahlil, vaqt modellari va sun'iy intellekt algoritmalaridan foydalanadi. Natijada, global iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham Samsung yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini saqlab qola olgan. Aksincha, Nokia uzoq yillar davomida innovatsion raqiblar paydo bo'lishini prognozlashda xato qilgan. Kompaniya bozor signallarini statistik tahlil qilish o'rniga tarixan shakllangan tajribaga tayanib boshqaruv yuritdi. Bu esa ilmiy modellashtirish tamoyillaridan voz kechish, bozor ehtiyojlarining keskin o'zgarishini e'tiborsiz qoldirishga olib keldi. Ilmiy nuqtayi nazardan, Samsungning ustunligi shundan iborat bo'ldiki, ushbu kompaniya xavf va imkoniyatlar yuzaga kelmasdan avval matematik modellar orqali natijalarni simulyatsiya qildi. Nokia kompaniyasida esa o'zgarish sodir bo'lgachgina qaror qabul qilingan, bu esa moliyaviy yo'qotishlarni chuqurlashtirgan. Shu jihatdan, modellashtirish va prognozlashning mavjudligi kompaniyaning nafaqat moliyaviy barqarorligini, balki strategik tirik qolish qobiliyatini belgilovchi omil ekanini ilmiy tarzda ta'kidlash mumkin. Globallashtirish bozorda eng kichik noaniqlik ham, agar u raqamli tahlilga aylantirilmasa, ko'p yillik yetakchilikni yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin.



1-rasm Samsung va Nokia kompaniyalarining yillik daromadi

Taqqoslovchi grafikdan ko'rinib turibdiki, Samsung va Nokia kompaniyalari o'zlarining moliyaviy boshqaruv strategiyalari, modellashtirish tizimi hamda prognozlash qobiliyatlari bo'yicha keskin farq qiladi. Samsung kompaniyasi davomli va barqaror o'sishini ushlab turishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, Nokia aksincha, keskin pasayish va tiklanishlarga uchrab, moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelgan.

Ilmiy tahlilning ajralmas qismi sifatida iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash jarayoni oddiy kuzatuvlarga emas, balki aniq hisob-kitoblarga asoslanadi. Shu boisdan, har qanday moliyaviy-iqtisodiy xulosa muayyan matematik va statistik formulalardan foydalanilgan holda shakllantiriladi. Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarining, xususan, kiyim-kechak sanoati subyektlarining faoliyatini baholashda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy modellashtirish formulalari tahlil qilinadi hamda ularning real amaliyotdagi qo'llanish mexanizmlari yoritib beriladi. Formulalar nafaqat nazariy tushunchalarni mustahkamlaydi, balki korxona daromadlari, xarajatlari, rentabellik darajasi va risk omillarini aniq modellashtirish imkonini yaratadi. Keling, kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxona misolida moliyaviy ko'rsatkichlarni qanday modellashtirish mumkinligini ko'rib chiqamiz. Faraz qilamiz, korxona bir oy davomida 10 000 dona sport kiyimi ishlab chiqargan va sotgan. Mahsulotning bir dona sotuv narxi 25 dollarni tashkil etadi. Buning uchun birinchi navbatda daromadni hisoblab olamiz:

$$R = P \cdot Q$$

Bu yerda:

$P = 25$ dollar (bir dona mahsulot narxi)

$Q = 10000$ dona (sotilgan mahsulot soni)

$$R = 25 \times 10\,000 = 250\,000 \text{ dollar}$$

Keyingi bosqich esa, umumiy xarajatlarni hisoblash. Buning uchun bizga korxonadagi doimiy xarajatlar (ijara, boshqaruv) qiymatlari kerak bo'ladi.

$$C = C_f + (C_v \times Q)$$

Bu yerda:

C_f = Korxonada doimiy xarajatlar (ijara, boshqaruv) - 50000 dollar.

C_v = Bir dona mahsulot uchun o'zgaruvchan xarajat - mato, ip, ishchi kuchi – 12 dollar

$$\text{Bundan kelib chiqadiki: } C = 50\,000 + (12 \times 10\,000) = 170\,000 \text{ dollar}$$

Endi esa korxonaning sof foydasini aniqlaymiz:

$$P_n = (R - C) \cdot (1 - T)$$

Bu yerda: T - soliq iqdori

$$\text{Bundan kelib chiqadiki: } P_n = 80\,000 \cdot (1 - 0.10) = 72\,000 \text{ dollar}$$

Rentabellik darajasini ham aniqlab olishimiz kerak:

$$\text{Rentabellik} = (P_n / C) \cdot 100\%$$

Bundan kelib chiqadiki: $\text{Rentabellik} = 72\,000 / 170\,000 \cdot 100\% = 42.35$

Bu ko'rsatkich korxonaning har 1 dollar xarajat evaziga 0.42 dollar sof foyda olayotganligini bildiradi.

Zararsiz ishlash nuqtasi:

$$Q = C_f / P - C_v$$

Bundan kelib chiqadiki: $Q = 50\,000 / 25 - 12 = 50\,000 / 13 = 3\,846$

Demak, korxona 3846 dona mahsulot sotgandan keyingina zarar ko'rmaydi.

Yuqorida amalga oshirilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish korxonalarida, xususan kiyim-kechak sanoatida moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni modellashtirish va prognozlash tizimining joriy etilishi korxonaning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini ta'minlash va risklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy modellashtirish orqali korxona nafaqat hozirgi moliyaviy holatini baholashi, balki kelajakdagi stsenariylar bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishi mumkin bo'ladi. Tadqiqot davomida daromad, xarajat, sof foyda, rentabellik va zararsiz ishlash nuqtasi kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning matematik modellari ishlab chiqildi. Ushbu modellarni amaliy misollar orqali qo'llash natijasida, korxona ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish, narx siyosatini shakllantirish va moliyaviy risklarni oldindan aniqlash imkoniga ega ekani aniqlandi. Ayniqsa, daromad va xarajalar o'rtasidagi nisbatni oldindan hisoblash orqali korxona moliyaviy barqarorlikni saqlashi hamda investitsion qarorlarni iqtisodiy asoslangan holda qabul qilishi mumkinligi isbotlandi. Shuningdek, prognozlash usullarini qo'llash ishlab chiqarish sohasida kelajakdagi bozor talabini aniqlash, xarajatlarning o'sish dinamikasini baholash hamda ishlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirishda strategik vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish esa modellashtirish jarayonlarini yanada avtomatlashtirish, tezkor hisob-kitoblarni amalga oshirish va aniq prognozlar shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi globallashtirish sharoitida axborot texnologiyalari (AT) ning jadal rivojlanishi moliya va ishlab chiqarish sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy modellari shakllantirish, ularni tahlil qilish va kelgusidagi ko'rsatkichlarni prognozlash jarayonlarida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. An'anaviy qo'lda hisob-kitob usullari o'rnini raqamli platformalar egallab, vaqtni tejash, inson xatosini kamaytirish va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkoniyatini bermoqda. Xususan, Microsoft Excel va Google Sheets kabi elektron jadvallar dasturi moliyaviy formulalar, rentabellik hisobi, zararsiz ishlash nuqtasi kabi modellarni tezkor tuzish va vizual tahlil qilish imkonini beradi. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlovchi korxonalar uchun esa ERP tizimlari (masalan, SAP, Oracle, 1C) ishlab chiqarish resurslarini boshqarish, xomashyo sarfini nazorat qilish hamda xarajalar strukturasini avtomatlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'rganish (Machine Learning) algoritmlari talab prognozi, risk baholash, dinamik narxlash va iste'molchi xulq-atvorini modellashtirishda keng qo'llanilmoqda. Python va R dasturlash tillari yordamida regressiya, klasterlash, vaqt qatorlari tahlili kabi statistik modellar asosida korxonaning kelgusidagi moliyaviy oqimlari aniqlik bilan bashorat qilinmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, axborot texnologiyalarini moliyaviy modellashtirish jarayoniga integratsiya qilish nafaqat matematik hisob-kitoblarni avtomatlashtiradi, balki strategik boshqaruvni raqamli transformatsiya darajasiga olib chiqadi. Natijada, korxonalar bozor o'zgarishlariga moslashuvchan bo'lib, raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlikni ta'minlashi mumkin.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, modellashtirish va prognozlashga ega bo'lmagan korxona bozordagi o'zgarishlarga moslasha olmaydi va raqobat ustunligini yo'qotish xavfiga ega. Samsung va Nokia kompaniyalari misolida kuzatilganidek, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, bashoratlash va simulyatsiya tizimlarini faol qo'llagan subyektlar barqaror rivojlanishga erishgan bo'lsa, ilmiy yondashuvdan chetda qolgan kompaniyalar keskin pasayish jarayoniga duch kelgan. Bu esa har qanday ishlab chiqarish sohasida, jumladan,

kiyim-kechak sanoatida ham ilmiy asoslangan moliyaviy tahlilning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy-iqtisodiy modellashtirish va prognozlashni rivojlantirish — bu tanlov emas, balki uzoq muddatli raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta'minlash uchun zaruriy strategik ehtiyojdir. Kelgusida ushbu yo'nalishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) va raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyalaridan keng foydalanish korxonalar uchun yangi boshqaruv yo'lini shakllantirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Ekonometrik modellashtirish”- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti; ALIMOV R.X., ALMURADOV A.A., XOMIDOV S.O.

Karimov A. “Ekonometrika”. – Toshkent: TDIU, 2021.

Nokia va Samsung rasmiy sahifalari

The Challenges of Learning a New Language as an Adult

Fayziyeva Dilafruz Nusratullayevna

Senior English Language Teacher (Highest Category)
Ministry of Internal Affairs, Navoi Academic Lyceum
Republic of Uzbekistan

Abstract

While language learning is a rewarding pursuit at any age, adults often face unique difficulties that can slow down their progress or lower their confidence. This paper explores the psychological, social, cognitive, and practical challenges adult learners experience when studying a new language. In addition, it discusses potential strategies and solutions to overcome these barriers, drawing from linguistic research and real-life experiences.

Keywords: Language learning, adult education, cognitive barriers, language anxiety, motivation, second language acquisition, lifelong learning, learning strategies

Introduction

Language is one of the most powerful tools humans possess. Learning a new language opens doors to new cultures, opportunities, and ways of thinking. For adults, mastering another language can be essential for career advancement, travel, or migration. However, unlike children who acquire languages naturally, adult learners often struggle with various obstacles, including time constraints, reduced memory retention, and fear of making mistakes.

Despite these hurdles, adult learners also bring several advantages, such as life experience, stronger motivation, and clearer learning goals. Understanding the nature of their challenges is the first step toward developing more effective teaching methods and personal learning strategies.

1. Cognitive and Neurological Limitations

One of the major barriers for adult learners is cognitive flexibility. According to neuroscience studies, the human brain is more receptive to language learning during childhood due to high plasticity. As we age, the brain becomes less adaptable, making it harder to memorize vocabulary or grasp unfamiliar grammar structures.

Adults may also rely more heavily on translation between their native and target languages, which can hinder fluency. Additionally, the tendency to compare linguistic systems often leads to interference or incorrect usage.

However, adults can overcome these issues by using repetition, mnemonics, spaced learning techniques, and engaging with real-world language input. Technologies like flashcard apps or listening to authentic media (podcasts, movies) can also reinforce memory and comprehension.

2. Psychological Barriers and Fear of Failure

Another common challenge is psychological resistance. Many adults fear making mistakes and being judged, especially in front of fluent speakers. This anxiety can block active participation in conversations, which is crucial for language improvement.

Unlike children, who learn through play and experimentation, adults may approach language learning too seriously, putting pressure on themselves to be perfect. This mindset can create a fear of failure that slows down progress.

Building a supportive learning environment, engaging in group practice, and accepting mistakes as part of the learning journey are key strategies to reduce this fear. Encouraging positive reinforcement and focusing on communication rather than perfection also help.

3. Time Constraints and Competing Responsibilities

Adult learners usually juggle multiple responsibilities—work, family, and social obligations—which limit the time and energy available for language study. Unlike school-age learners who can dedicate full days to education, adults often have to fit lessons into tight schedules.

Consistency becomes a major issue; irregular practice leads to forgetting, reduced progress, and eventually frustration or giving up.

To address this, learners can adopt micro-learning techniques—short, focused sessions—and integrate language into daily routines, such as listening to podcasts while commuting or reading short articles during lunch breaks.

4. Lack of Access to Immersive Environments

Language immersion is one of the most effective methods of acquiring fluency. However, many adult learners may not have the chance to travel or live in an environment where the target language is spoken.

Without regular exposure to native speakers, learners may struggle with pronunciation, slang, or real-life usage. Classroom learning, while helpful, often lacks spontaneity and conversational flow.

To compensate, adults can use digital tools like language exchange platforms (e.g., Tandem, HelloTalk), online conversation classes, or even virtual reality language environments. These tools provide interaction and exposure without needing to leave home.

5. Motivation and Long-term Commitment

Maintaining motivation over a long period can be difficult, especially when progress seems slow or invisible. Adult learners often set goals like “becoming fluent in one year,” but without clear, measurable milestones, they may become discouraged.

Furthermore, motivation may fluctuate due to external pressures, life changes, or unmet expectations.

Setting realistic goals, tracking progress, celebrating small victories, and finding personal meaning in the learning process can help sustain long-term commitment. Social support from peers or mentors also boosts morale.

Conclusion

Learning a new language as an adult comes with a unique set of challenges—cognitive, emotional, and practical. However, these challenges are not insurmountable. With the right strategies, tools, and mindset, adults can achieve impressive levels of language proficiency. Recognizing the difficulties is the first step toward overcoming them. Educators should tailor their methods to support adult learners’ specific needs, and learners themselves should approach the journey with patience, resilience, and a sense of curiosity. Language learning is not a race—it is a lifelong investment in personal and professional growth.

References:

Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.

This foundational text by Stephen Krashen discusses the key theories of second language acquisition, emphasizing the role of input and affective factors in learning.

Cook, V. (2008). *Second Language Learning and Language Teaching*. Hodder Education. Cook explores the cognitive challenges faced by adult language learners, addressing issues like the critical period hypothesis and cognitive overload.

Schneider, E., & Pennycook, A. (2013). *Language and Mobility: Unexpected Places*. Routledge.

This book highlights the challenges of learning a language in non-immersive environments and discusses practical strategies for overcoming this limitation.

Gardner, R. C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. Edward Arnold.

Gardner's research focuses on the role of motivation in language learning, exploring both intrinsic and extrinsic factors that influence adult learners.

Paivio, A. (2007). *Mind and Its Evolution: A Dual Coding Theoretical Approach*. Lawrence Erlbaum Associates.

Paivio's work on cognitive theory and dual coding provides insights into how adults can use mnemonic devices and other cognitive strategies to improve their language learning process.

Tharp, R. G., & Gallimore, R. (1988). *Rousing Minds to Life: Teaching, Learning, and Schooling in Social Context*. Cambridge University Press.

This book discusses the socio-cultural context of learning, particularly the psychological and social factors that can hinder or enhance adult learners' progress.

Aitchison, J. (2003). *Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon*. Blackwell Publishing.

Aitchison's work provides an understanding of how adult learners store and retrieve words in their mental lexicon, highlighting the challenges they face with vocabulary retention.

Bialystok, E. (2001). *Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition*. Cambridge University Press.

Bialystok's research on bilingualism offers insights into how adults can leverage their first language knowledge when learning a second language, including how to manage interference and achieve fluency.

Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

Vygotsky's theories on social interaction and cognitive development emphasize the importance of collaborative learning, which can help adult learners overcome language anxiety and fear of failure.

Swain, M., & Lapkin, S. (2001). Investigating the Role of Talk in Collaborative Second Language Learning. *The Modern Language Journal*, 85(2), 320–337.

This paper examines how adult learners can benefit from collaborative language learning experiences, such as group practice and peer interactions.

Dörnyei, Z. (2005). *The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition*. Lawrence Erlbaum Associates.

Dörnyei discusses the psychological factors that affect language learning, such as anxiety, self-confidence, and motivation, which are particularly relevant to adult learners.

Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.

Ellis focuses on task-based learning methods, which can be particularly effective for adult learners who need to incorporate language practice into real-world contexts.

The Artistic Skill Of Nosir Fazilov

Jalolova Saodat

Bukhara State University
2nd year master's student

Abstract

This article analyzes the novella "Saraton" by children's writer and skilled translator Nosir Fozilov. In particular, it presents reflections on character analysis and the author's literary craftsmanship.

Keywords: Nosir Fozilov, novella, craftsmanship, war.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar yozuvchisi, mohir tarjimon Nosir Fozilovning "Saraton" qissasi tahlilga tortilgan. Xususan unda obrazlar tahlili hamda yozuvchining badiiy mahorati haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Nosir Fozilov, qissa, mahorat, urush.

Adabiyot har doim jamiyat ko'zgusi bo'lib kelgan. U inson dunyosining eng nozik qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi asarlar orqali yozuvchilar zamon muammolarini badiiy obrazlar vositasida tasvirlashga erishganlar.

O'zbek adabiyotida o'ziga xos adabiy maktab yaratgan yozuvchilar orasida Nosir Fozilov alohida o'rin tutadi. Ikki xalqning farzandi bo'lgan yozuvchimiz 1929-yil Qozog'iston Respublikasining Turkiston tumanida tug'ilganlar. Yozuvchi hamda tarjimon hisoblangan ushbu inson O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi hisoblanadi. Nosir Fozilovning birinchi to'plami "Irmoq" nomi bilan nashr etilgan. Bundan tashqari yozuvchining "Oqim", "Robinsonlar", "Qush qanoti bilan", "Qorxat", "Ko'klam qissalari", "Bolaligim-poshsholigim", "Bir otar to'pponcha", "Shum bolaning nabiralari" kabi asarlar va boshqa asarlar muallifidir. Yozuvchining hikoya va qissalari milliy bo'yoqlarining yorqinligi, tilining jozibadorligi, xalq turmushi manzaralarining, ayniqsa, bolalarning ichki dunyosi, o'y-kechinmalarining jonli tasviri, ko'tarinki ruhi bilan ajralib turadi. Asarlarida cho'l tabiatiga xos manzaralar shoirona chizilgan. Uning asarlari faqat badiiy tasvir emas, balki chuqur falsafiy va psixologik qatlamlar bilan boyitilgan bo'lib, o'quvchini mushohada qilishga chorlaydi. Uning ko'plab asarlari maktab o'quvchilari hayotiga bag'ishlangan. "Saraton" qissasi ham sarlavha jihatidan boshqa asarlariga zid bo'lsa-da, ammo asar qahramonlari yana maktab o'quvchilari. Ularning asosiy farqi-voqealar tarsvirlangan davr.

Muallif asar muqaddimasida shunday yozadi: "Go'dakligim o'ttizinchi yillarning kollektivlashtirish davrida, o'ttiz uchinchi yillarning ocharchilik va yupunchilik davrlarida, bolaligim esa o'ttiz yettinchi yillarning alg'ov-dalg'ov davrida, qirqinchi, qirq beshinchi yillarning dahshatli urush yillarida kechdi. Biz urush davri farzandlari bolalikning barcha imtiyozlaridan foydalanmay o'sdik, o'qishlarimiz ham o'lda-jo'lda, uzoq-yuluq bo'ldi. Men bu gaplarni nolib aytayotgani yo'q. Bolaligimiz turmush riyozotlari bilan omuxta kechdi. Xalqimiz: "Yomonlik ko'rmay yaxshilik yo'q", deydi. Balki, hozirgi to'kin hayotimiz, baxtli onlarimiz, o'sha ko'rgan-kechirgan tashvish va riyozotlarimiz tufayli emasmikan, deb o'ylab ketaman ba'zan. Bu kitob sizni men kechgan hayot so'qmoqlaridan jinday xabardor qilsa, o'sha davr mashaqqatlarini ko'z oldingizga keltira olsa, hozirgi baxtli hayotingizdan minnatdor tuyg'ularingizni uyg'ota olsa, men nihoyatda xursand bo'lardim". Qissada inson va jamiyat, ruhiy bosim va ma'naviy tanazzul masalalari o'ziga xos badiiy shaklda talqin etilgan. Yozuvchining ushbu asari urush voqealariga urush ortida mehnat qilayotgan xalqning munosabati, jamiyatda hukm surayotgan birdamlik g'oyalarining yoshlar ongiga ta'siri, ulg'ayishga majbur bo'layotgan o'smirlar-asardagi har bir tasvir o'quvchini fikrlashga, munosabat bildirishga undaydi. Saratonda boshlangan urushning sovuq xabari odamlarning, ayniqsa, yosh

bolalarning, o'smirlarning kayfiyatiga, yurish-turishiga, dunyoqarashiga qanchalik ta'sir qildi? Urush voqealariga urush ortida mehnat qilayotgan xalqning munosabati, jamiyatda hukm surayotgan birdamlik g'oyalarining yoshlar ongiga ta'siri, ulg'ayishga "majbur bo'layotgan" o'smirlar- asardagi har bir tasvir o'quvchini fikrlashga, munosabat bildirishga undaydi. An'analar, qadimdan davom etib kelayotgan qadriyatlar, jasorat va mardlik bilan bir qatorda tarannum etilgan andisha va hayo tuyg'ulari kitobxonni sergaklantiradi. Atrofidan asar qahramonlariga o'xshash insonlarni axtaradi, ularning ijobiy tomonlaridan o'rnak, salbiy jihatlaridan saboq oladi...

Qissada Ikkinchi jahon urushi davrida bir qishloq hayotida ro'y bergan voqealar tasvirlangan. Ushbu voqealar orqali biz urush davrida xalqimiz qanday hayot kechirganlarini ko'rishimiz va his eta olishimiz mumkin. Asar ushbu epigraf bilan boshlanadi:

Sevgi tili so'zsiz til,
Ko'z bilan ko'r, dildan bil,
Bir qarash yo bir imo
Bilan bog'lanar ko'ngil.

ABAY

Nega aynan sevgi? Asar bosh qahramonlari bo'lgan To'ra hamda Kamola o'smir bolalar, ular hali sevgi nimaligini anglamagan. Asarni o'qish davomida ularning ich-ichidan sodir bo'layotgan tasvirlash qiyin bo'lgan holatlarning barchasi shu muhabbat ta'siri ekanligini anglash mushkul emas. Asar nomiga mos boshlanma bilan boshlanadi: "Arpa boshloqlari sarg'ayib, bug'doy boshloqlariga rang kira boshlagan, qovun palaklari tanob yozib, tuynuklar etik boshiday bo'lib qolgan palla. Dehqonlarning tili bilan aytganda: yo'g'on cho'zilib, ingichka uziladigan payt". To'ra hali o'n yetti yoshda, o'smir bola lekin urush sababli u maktabni tugatgandan keyin o'qishga ketish o'rniga dalaga chiqib, Kamol (aslida Kamola. Dalada To'ra bilan mol boqqanligi uchun hamma uni shunday chaqiradi) bilan birga qishloq ahlining molini boqib yurishga majbur. Ularning boshlig'i G'iyos aka. G'iyos aka urushga borishga yaramaganligi uchun (ko'zi traxoma deb topilib, kerak bo'lsang o'zimiz chaqiramiz deyishgan) ushbu ikki o'smir bilan dalada qishloq ahlining molini ertalabdan kechgacha boqishadi. Urushga jo'natilmagan qishloq ahli hamda ayollar esa boshqa yumushlar bilan band. To'ra Kamolni ya'ni Kamolani qiz bolagini bilsada, ular bir-birlaridan yotsiramay sen-qiz, sen-o'g'il, demay o'sishgan. Hammasi ushbu voqeadan so'ng boshlandi. To'ra Kamolani qo'rqitish maqsadida uning yoniga kelganida Kamola suvdan chiqib kiyinayotganini ko'rib qolganidan. Asarning asosiy qismi shu voqeadan boshlanadi. To'raning qandaydir o'zi anglamagan holatga tushib qolishlari, Kamolaning podadan ketib maktabga ishga kirishi, Ular bir-birini endi kam ko'rishlari asarda tasvirlangan. "tarvaqaylab o'sgan tol tagida hozirgina suvdan chiqqan Kamola uning ko'z oldida gavdalandi." To'raning miyasiga shu fikr keldi: "Vo, ajabo! Hali Kamola qiz bolamidi?!" Uning ko'z o'ngi qorong'ulashib ketganfay bo'ldi. o'ziga o'zi ishonmay, ko'zlarini qayta-qayta yumib ochdi, ko'z o'ngida haligi surat! Yopiray!" Shundan so'ng To'raning ichki kechinmalarini, uning ko'ziga kichkina e'tiborsiz narsalar ham juda chiroyli bo'lib ko'rinishlarini, tabiatning qanday go'zallashganini ko'rishimiz mumkin. Bu adabiyot tili bilan aytganda asar qahramonining ichki kechinmalarining tasvirlanishi deyishimiz mumkin. Bundan tashqari qissada biz ushbu qishloqqa urush bo'layotgan yerlardan ko'chirib kelinayotgan boshqa millat vakillariga mansub shaxslarni ham uchratishimiz mumkin. Yozuvchi o'zi: "Yoshligimda qishlog'imizda turli millat xalqlari yashab, mehnat qilardilar. Biz bir-birimizni o'zbek, qozoq, rus deb ajratmay o'sdik. Bunga asos ham yo'q edi. Bizni hayot jipslashtirib qo'ygan edi. Men hukmingizga havola etayotgan ushbu "saron" qissasini yozayotganimda zalqlar do'stligi mavzusini o'ylan ham o'tirmaganman. Hayotda qanday bo'lsa shundayligicha, bejamasdan, yonimdan qo'shmasdan kuchaniqsiz, chiraniqsiz qog'ozga tushirishga harakat qilganman. Binobarin, ko'rgan-kechirgan narsang, agar uni qalbdan his qilsang, tuyg'ularing chinakam rost bo'lsa, yozganlaring tabiiy chiqishi turgan gap", -deb yozadi. Asarda millat ajratilmaganligini qishloq aholisi ularga uy-joylaridan berishlaridan bundan tashqari To'ra ularga osholol¹ tarqatib chiqqanligidan bilishimiz

mumkin.Yana bundan tashqari ko'chirib keltirilganlar qishloq aholisining ishlariga yordam beradi.Sergey ismli bola Kamola podadan ketgandan so'ng To'radan mol boqishni o'rganib,unga yordam beradi.Kristina ismli qiz shaharga jo'natilishi kerak bo'lgan,bug'doy solingan qoplarni og'zini tikishga yordamlashadi.Qishloqdagilar qanchalik ularga yordam berishayotgan bo'lsa, ular ham qo'llaridan kelgancha qishloq odamlariga yordamlashadi.Biri shishalardan lampa yasaydi.

Yana asarda yozuvchining badiiy mahoratini o'xshatishlarni juda chiroyli qo'llagan joylarida ko'rishimiz mumkin.Masalan:birgina Kamolaning kulgusini :“xuddi kumush tanganing jarangidek tiniq”,-deb aytadi.Saraton issig'ini esa shunday tasvirlaydi: “Saraton oftobi tikkaga kelgan,hamma yoqni jizg'inak qilib kuydirib turibti.To'rg'aylar ham o'zlarini salqin-soyaga urishgan.Uzoq-uzoqlardan kumush sarob miltillaydi.Hatto odamlarning soyalari ham issiqdan qo'rqganday bag'rilariga tiqilgan,xuddi tandir ichida yurib,nafas olayotganday bo'lasan”.Ushbu fikrlarni faqatgina bu holatni boshidan o'tkazgan kishi yoza olishi mumkin.Bu ham yozuvchining mahorati belgisi.Asar oxiri esa Kamola va To'raning bir-biriga aytolmagan sevgisi oshkori bilan yakunlanadi.Aynan shu paytda ular o'smirlikning sehrli sarhadidan balog'at ostonasiga qadam qo'yganlarini sezmay ham qolishadi.

Asarda ushbu ikki o'smirning hamda asar qahramonlarining hayotida ro'y berayotgan voqealar orqali Ikkinchi jahon urushi paytidagi xalqimiz ahvolini ko'rsata olish yozuvchining asosiy maqsadi bo'lgan desam mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Saraton:qissalar/Nosir Fozilov.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2019.-240-b.
Quronov.D. Adabiyot nazariyasi asoslari.-Toshkent:Akademnashr,2018.

Social Deixis Composition In English And Uzbekistan

Rajabboqiyeva Barno Obidjon qizi

Master's student, Turan University

email: rajabboqiyevab@gmail.com

Scientific advisor: Assoc. Prof. M. Khamrayeva

Abstract

This article analyzes the cognitive-semantic features of social deixis in English and Uzbek. Social deixis plays a key role in expressing social relations, respect, and intimacy through linguistic means in communication. The study provides a comparative analysis of forms of address, titles, honorifics, and markers of politeness in English and Uzbek, highlighting how they reflect social status and conversational context. From the perspective of cognitive semantics, the research explores the conceptual domains, meanings, and cultural factors shaping these linguistic units.

Keywords: social deixis, cognitive semantics, forms of address, social status, politeness, communication culture.

Anotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy deysisning kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy deysis til vositalarining nutq jarayonida ijtimoiy munosabatlarni, hurmat va yaqinlik darajasini ifodalashdagi rolini belgilaydi. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida murojaat shakllari, unvonlar, hurmat-kamtarlik ifodalovchi birliklar, shuningdek, ijtimoiy maqom va muloqot kontekstiga bog'liq farqlar solishtirma tahlil qilinadi. Kognitiv semantika asosida ushbu birliklarning mazmuni, konseptual maydoni va madaniy omillarga tayanishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy deysis, kognitiv semantika, murojaat shakllari, ijtimoiy maqom, hurmat, muloqot madaniyati

KIRISH. Tilshunoslikda deysis tushunchasining besh xil turi mavjud bo'lib unga quyidagilar kiradi. 1) vaqt deysisi; 2) shaxs deysisi; 3) o'rin joy deysisi; 4) ijtimoiy deysis 5) diskursiv deysis. Til nutq hodisasida ijtimoiy deysis so'zlovchi, tinglovchi va boshqa ishtirokchilarning ijtimoiy munosabatlari va xususiyatlarini namoyon qiladi. Bu esa tilning ijtimoiy mavqe, tanishuv hamda ijtimoiy rollarni qanday yo'l bilan ko'rsatishini ifodalaydi. Bunga murojat shakllari masalan, "janob Prezident", "do'stim", sharaflil so'zlar va ijtimoiy farqlarni bildiruvchi boshqa lingvistik xususiyatlar kiradi [en.wikipedia.org].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ijtimoiy deysis, tilning ijtimoiy munosabatlarini qanday aks ettirish va shakllantirish uslubini o'rgansa, pragmatika sohasidagi uni ko'plab olimlar qiyoslashgan. Jumladan, Levinson ijtimoiy deysis nazaryasini o'rganish bilan birga shaxs, joy va vaqt bilan birga deysisning besh turi sifatida belgilab bergan. CH. Fillmore shuningdek, ijtimoiy deysisni farqlanishi uning ijtimoiy vaziyatlarni aks ettirishdagi rolini tushuntirdi. Bundan tashqari, J Lyons o'zining semantika bo'yicha tadqiqotida deysisning an'anaviy toifalarini ijtimoiy deysisni kategoryasi orqali kengaytirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ijtimoiy deysis va nutq faoliyatining ijtimoiy holati o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab, ijtimoiy voqelikni aks ettiradi va ular bilan belgilanadi degan fikrni Fillmore ilgari suradi [CH.Fillmore 1975; 88].

U deysis haqidagi tushunchani shaxs, joy va vaqt kabi an'anaviy kategoriyalardan tashqari kengaytirib, uning lingvistik tahlildagi ahamiyatini

ta'kidlab, ijtimoiy deysisni qamrab oldi [J.Lyons 1995;18]

Bundan tashqari dunyoning bir qator olimlari o'z hissalarni qo'shgan

Masalan, D.Archer, J. K. Aijmer va S.Wichmann (2012) relational ijtimoiy deysisga, xususan, qarindoshlik atamalariga va ularning nutq hodisasi doirasidagi ijtimoiy munosabatlarga aloqasiga e'tibor qaratdi. J.Huang (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mutlaq ijtimoiy

deyxisni, shu jumladan ijtimoiy mavqeni ifodalash uchun ishlatiladigan sharaflarni o'rganib chiqdi. Researchgate tomonidan olib borilgan tadqiqot ijtimoiy deyxis va ijtimoiy sinf o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqdi, ijtimoiy deyxis kabi lingvistik xususiyatlar so'zlovchining ijtimoiy mavqeini qanday ochib berish mumkinligini o'rgandi.

Ijtimoiy deyxis bu suhbat ishtirokchilarining o'ziga xosligi yoki munosabatlari haqidagi ma'lumotni grammatiklashtirgan ba'zi tillarning olmosh tizimlarining hodisasi [S. Seid 2009;197].

J.Holmesga ko'ra ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhitga, o'zaro ta'sirning funksiyalariga va ular o'rtasidagi muhokama qilinadigan mavzuga bog'liq [J. Holmes 2013;8].

Demak til so'zlovchilarning ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra o'zgarib turadi, tildan foydalanish suhbatda ishtirok etuvchi ishtirokchilar o'rtasidagi va ularning maqomi bilan belgilanadi, maqomi yoshi, ijtimoiy toifasi va mashg'ulotlari turlicha bo'lganligi sababli teng bo'lmagan mavqega ega bo'lgan shaxslar o'rtasidagi nutq, ehtimol, tengdoshlar o'rtasidagi qaraganda rasmiyroqdir. Ijtimoiy deyxis va asosiy shakllari shaxs olmoshlari, otlari, taxalluslar, qarindoshlik iboralari, mehribonlik shartlari sharaf shakllari ekanligini eslatib o'tadi. Ijtimoiy deyxis sosan adresatni ko'rsatish uchun hurmat ko'rsatadigan lug'aviy shakldir, masalan, so'zlovchi hurmat ko'rsatganda (Janob Amir) yoki pastga urib gapirganda (qulingiz) [Holmes 2013, p.8]

Aminjonga javob berildi. Bu novcha, qirraborun yosh esa-da ,ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirgan yigit bizni Buxoroga chin dildan taklif etdi. Adresini qoldirdi. Nosirjon bilan xo'shlashar ekan, unga negadir o'ychan boqib:

- Siz havas qilsa arziydigan yigitsiz. Biz... bo'lgancha bo'lganmiz, uka, ---dedi.(Shukur Xolmirzayev. O'n sakkizga kirmagan kim bor. 184)

Matndan ijtimoiy deyxis birliklari bor va ularni kognitiv semantik tahlil qilamiz.

yigitsiz → “Siz” formasining qo'llanishi hurmatni ifodalaydi, Nosirjon Aminjonga nisbatan hurmat bilan murojaat qilmoqda “uka” → Bu so'z ijtimoiy yaqinlikni, birodarlikni bildiruvchi murojaatdir va shu bilan birga, biroz pastroq maqomni yoki kichikroq yoshni ham anglatadi. “Biz... bo'lgancha bo'lganmiz” → “Biz” orqali Nosirjon o'zini va o'z tengdoshlarini umumlashtirib, tajribasi ortda qolgan avlod sifatida ko'rsatmoqda.

Kognitiv semantika til birliklarining inson tajribasi va dunyoqarashidagi konseptual xaritaga bog'lanishini o'rganadi. Ushbu parcha quyidagicha tahlil qilamiz: “Siz” → nutq egasi o'zini kamtarona, suhbatdoshini esa yuqori maqomda tasavvur qiladi. Bu kognitiv modelda “hurmat”ni ko'rsatadi. “uka” → garchi “Siz” ishlatilgan bo'lsa-da, “uka” so'zi samimiylilik, yaqinlik va birodarlik kognitiv modelini yuzaga chiqaradi. Demak, bu yerda hurmat + samimiylilik aralashgan.

“Biz... bo'lgancha bo'lganmiz” → bu jumla orqali Nosirjon o'z avlodini tajriba orttirgan, lekin endi yosh emas, deb angelaydi. Bu kognitiv semantikada “*avlodlar kontrast*” konseptini ifodalaydi: yoshlar – kelajak, biz – o'tgan avlod. Mazkur parchaning ijtimoiy deyxisi Nosirjon va Aminjon o'rtasidagi avlodlararo tafovut, hurmat va samimiylilikning uyg'unlashuvini ifodalaydi. “Siz” → hurmatli murojaat, “uka” → yaqinlik, birodarlik, “ Biz... bo'lgancha bo'lganmiz” → tajriba va avlodlar o'rtasidagi chegarani anglash. Shunday qilib, kognitiv semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, bu matnda ijtimoiy deyxis orqali insonlar orasidagi ierarxiya, avlodlar farqi va hurmat-samimiylilik konsepti tasvirlangan.

What was the name? The signature was rather difficult to read. Emily Brent thought impatiently: “So many people write their signatures quite illegibly.” She let her mind run back over the people at Belhaven. She had been there two summers running. There had been that nice middle aged woman—Miss—Miss—now what was her name?— her father had been a Canon. And there had been a Mrs Olton—Ormen—No, surely it was Oliver! Yes—Oliver (Agatha Christie, And Then There Were None P58)

Badiiy matndagi ijtimoiy deyxis birliklarni kognitiv semantik tahlil qilamiz

“Miss” – ijtimoiy maqomni bildiruvchi murojaat shakli, odatda turmush qurmagan ayollarga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda ism esdan chiqqan, lekin ijtimoiy maqom belgisi xotirada qolgan. “Mrs.” – turmush qurgan ayollarga nisbatan ishlatiluvchi hurmat shakli. Bu ham ismni aniq eslay olmagan joyda ijtimoiy maqomni eslab qolish hodisasini ko’rsatadi va “*her father had been a Canon*” – bu ijtimoiy maqomning yana bir ko’rsatkichi: ayolning shaxsi otasining diniy darajasi (Canon – cherkovda yuqori martaba) orqali aniqlanmoqda. “Miss” va “Mrs.” kabi ijtimoiy deysislar ingliz jamiyatida gender + oilaviy maqomni birlamchi identifikatsiya belgisi sifatida tushuniladi. “Canon” kabi martaba esa ijtimoiy tabaqalanish, ya’ni shaxsni u kimning farzandi ekanligi orqali tanish konseptini bildiradi. Bu parcha ijtimoiy deysisning quyidagi kognitiv-semantik funksiyalarini ochib beradi: Shaxsni ism emas, balki ijtimoiy rol orqali tanish – Emily ismni eslolmaydi, lekin “Miss”, “Mrs.” va “*Canonning qizi*” kabi maqomlar orqali uni tasavvurida qayta tiklaydi. Ingliz jamiyatining ijtimoiy kategoriyalariga asoslangan kognitiv xarita – turmush qurgan/qurmaganlik, otaning martabasi kabi belgilar ijtimoiy tasniflashda markaziy o’rin egallaydi. Xotiraning ijtimoiy indeksatsiyasi – ijtimoiy deysis shaxslarni eslash va farqlashda “kognitiv indeks” vazifasini bajaradi

1. Ma'lumotga asoslangan boshqaruv (Data-driven management) - bunda har bir qaror aniq statistik asosda qabul qilinadi; 2. Proaktiv boshqaruv – bunda muammolar oldindan aniqlanadi va profilaktik choralar ko'riladi; 3. Etik boshqaruv – bunda qarorlar inson qadriyatlariga zid bo'lmasligi shart; 4. Moslashuvchan boshqaruv – bunda AI tizimlari muhit o'zgarishiga tez javob beradi; 5. Inson va texnologiya hamkorligi – rahbarlar algoritmlarni vosita sifatida ishlatadi. Kelajakda rahbarlar roli "buyruq beruvchi" emas, balki "ma'lumotlarni boshqaruvchi tahlilchi" sifatida shakllanadi. AI esa ularning "raqamli sherigi"ga aylanadi.

O'zbekiston amalga oshirish uchun tavsiyalar quyidagicha:

1. Davlat darajasida AI boshqaruv siyosatini kuchaytirish, buning uchun "AI Governance" milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish.

2. AI infratuzilmasini rivojlantirish, buning uchun Data Centerlar, bulutli hisoblash va kiberxavfsizlik tizimlarini kengaytirish.

3. Inson kapitalini rivojlantirish, buning uchun AI va boshqaruv kesishgan sohalarda o'qituvchilar, rahbarlar va mutaxassislar tayyorlash.

4. Etik AI muhitini yaratish, buning uchun AI qarorlarining shaffofligi va adolatligini ta'minlovchi me'yorlar ishlab chiqish.

5. Xususiy sektorni rag'batlantirish, buning uchun AI startaplarini soliq imtiyozlari va grantlar orqali qo'llab-quvvatlash.

6. Xalqaro tajribani o'zlashtirish, buning uchun ilg'or kompaniyalar (Google, Tesla, IBM, Amazon, Microsoft) tajribalaridan foydalanish.

Sun'iy intellekt davrida boshqaruvning kelajagi - bu inson tafakkuri va algoritmik tahlil uyg'unlashgan tizimdir. Ana shunday uyg'unlik O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion, raqamli va barqaror rivojlanishga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- McKinsey & Company. (2024). The State of AI in 2024: Productivity and Growth.
- PwC. (2023). Global Artificial Intelligence Study: Exploiting the AI Revolution.
- Harvard Business Review. (2023). The AI-Powered Manager: How Artificial Intelligence is Changing Leadership.
- Microsoft. (2024). AI Impact Report: The Role of AI in Business Transformation.
- Tesla Inc. (2023). Factory AI and the Future of Smart Manufacturing.
- OECD. (2023). Artificial Intelligence in the Digital Economy: Trends and Policies.
- Deloitte Insights. (2024). Leading with AI: Reimagining Management in the Digital Era.
- IBM. (2024). Responsible AI: Corporate Ethics in the Digital Age.
- Gartner. (2024). Chief Data Officer Agenda: AI-Driven Leadership.
- Amazon. (2023). AI in Logistics and Human Resource Optimization.
- Google. (2023). People Analytics: Data-Driven Leadership at Google
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi PQ–4996-son qarori.
- Axborot texnologiyalari vazirligi. (2024). Sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha hisobot.
- OECD. (2023). AI and Ethics in Global Governance.
- World Economic Forum. (2024). The Future of Jobs Report.
- UNDP Uzbekistan. (2023). Digital Transformation and Governance in Uzbekistan.
- TBC Bank Uzbekistan. (2024). AI-Based Customer Analysis Report.
- Beeline Uzbekistan. (2024). Virtual Assistant Efficiency Report.
- Artel Electronics. (2024). Smart Production Analytics Report.
- Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan. (2024). AI in Public Administration Report.

Linguistic Problems In Uzbekistan Hindi Studies

Kurbanova Ozoda

School No. 24 named after Lal Bahadur Shastri

ANNOTATION

This thesis scientifically analyzes the formation and development of Uzbek Indian studies, linguistic differences between Hindi and Uzbek languages, as well as phonetic, grammatical, semantic, terminological and translation problems. Each section reveals the similarities and differences between Uzbek and Hindi languages through specific examples.

Keywords: Indian studies, Hindi language, linguistics, phonetics, grammar, semantics, terminology, translation.

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o'zbek hindshunosligining shakllanishi va rivojlanishi, Hindiy va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvistik tafovutlar, shuningdek fonetik, grammatik, semantik, terminologik va tarjima muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Har bir bo'limda aniq misollar orqali o'zbek va hindiy tillari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Hindshunoslik, Hindiy tili, lingvistika, fonetika, grammatika, semantika, terminologiya, tarjima.

KIRISH. O'zbek hindshunosligi — bu o'zbek tilshunosligida shakllangan ilmiy yo'nalish bo'lib, Hindistonning tili, madaniyati va adabiy merosini o'rganishga qaratilgan. XX asr o'rtalaridan boshlab o'zbek olimlari tomonidan Hindiy tili fonetikasi, grammatikasi, leksikasi va tarjima nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ikki tildagi struktur va semantik tafovutlar sababli lingvistik muammolar yuzaga kelgan.

ASOSIY QISM.

1. Fonetik muammolar. Hindiy tili fonetikasi o'zbek tiliga qaraganda murakkabroq tizimga ega. Xususan, Hindiy tilida serebral tovushlar mavjud (ट, ड, ठ, ढ), o'zbek tilida esa bunday tovushlar yo'q.

Misollar:

- टाटा (ṭāṭā – “xayr”) o'zbek talaffuzida odatda “tata” tarzida aytiladi.
- बड़ा (barā – katta) va बरा (barā – noto'g'ri talaffuz) orasidagi farq ma'noni o'zgartiradi.

Bundan tashqari, Hindiy tilidagi nafas undoshlar (ख kh, घ gh, ज् jh, थ th) o'zbek tilida mavjud emas.

Masalan: फल (phal – meva) va पल (pal – lahza) so'zlari faqat bitta tovush farqi bilan ma'nosi o'zgaradi.

2. Grammatik muammolar. Hindiy tili grammatikasi ergativ tizimga ega, bu o'zbek tilida uchramaydi.

Misol: उसने किताब पढ़ी। (Usne kitāb paṛhī) — “U (ayol) kitobni o'qidi.”

O'zbek tilida esa “u kitobni o'qidi” shaklida ergativ qo'shimchalarsiz ifodalanadi.

Bundan tashqari, hindiy tilida fe'l jinsiga qarab o'zgaradi:

- वह गया (u bordi – erkak),
- वह गई (u bordi – ayol).

Zamon tizimi ham o'zbekchadan murakkabroq: tugal, notugal va progressive shakllari mavjud bo'lib, ular gapda turli semantik nozikliklarni bildiradi.

3. **Semantik muammolar.** Hindiy tilidagi ko'p ma'nolilik tarjima jarayonida asosiy muammolardan biridir. Masalan:

- मन (man) – yurak, fikr, ruhiy holat;
- धर्म (dharma) – din, burch, axloqiy qonun;
- काम (kāma) – ish, muhabbat, nafs.

Bu soʻzlarni kontekstsiz tarjima qilish maʼnoni buzadi. Shuningdek, Hindiy tilidagi metaforik ifodalar ham oʻzbek tilida toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilinmaydi, masalan: “दिल टूट गया” (dil tūt gayā – yuragi sinib ketdi) oʻzbekchada “qattiq ranjidi” tarzida ifodalanadi.

4. Terminologik muammolar. Hind falsafasiga oid atamalarni oʻzbek tilida toʻgʻri ekvivalent bilan ifodalash murakkab. Misollar:

- कर्म (karma) – “amal”, “natija”, “taqdir”;
- संस्कृत (saṁskṛt) – “mukammal til”;
- मोक्ष (mokṣa) – “ozodlik”, “najot”;
- योग (yoga) – “birikish”, “ruhiy uygʻunlik”.

Ularni toʻgʻri tushuntirish uchun hind madaniy kontekstini bilish zarur.

5. Tarjima va metodik muammolar. Hindiy tili analitik, oʻzbek tili esa sintetik tuzilishga ega. Shu sababli, tarjimada grammatik moslashuv muhim.

Masalan: • “मुझे यह किताब पसंद है।” (Mujhe yah kitāb pasand hai) — “Menga bu kitob yoqadi.”

Soʻzma-soʻz tarjima qilsak, “Bu kitob menga yoqimli” boʻladi, bu esa oʻzbek tilining tabiiy strukturasi uchun mos emas.

Shuningdek, oʻzbek tilida hindiy tili oʻqituvchilari uchun talaffuz lugʻatlari va metodik qoʻllanmalar yetishmaydi.

XULOSA

Oʻzbek hindshunosligidagi lingvistik muammolar fonetik, grammatik, semantik, terminologik va tarjima sohalarida kuzatiladi.

Ularni bartaraf etish uchun:

1. Hindiy–oʻzbek qiyosiy tadqiqotlarini kengaytirish;
2. Ilmiy terminologiya bazasini yaratish;
3. Oʻqituvchilar uchun zamonaviy metodik qoʻllanmalarni ishlab chiqish zarur.

Bu yoʻnalishlar oʻzbek hindshunosligining rivojiga va ikki xalq oʻrtasidagi madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рахматуллаев Ш. Хинд тили фонетикаси асослари. – Тошкент, 1995.
2. Хасанов А. Ҳинд ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Тошкент, 2002.
3. Sharma, R. Hindi Grammar and Composition. – New Delhi: Rajpal & Sons, 2010.
4. Jain, U. Introduction to Hindi Linguistics. – Delhi: Motilal Banarsidass, 2001.
5. Abdullaeva M. Oʻzbek hindshunosligining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent, 2018.

Linguopragmatic Features Of Social Advertisements In English And Uzbekistan

Gafurova Mutabar Fakhridin qizi,

Master student of the Kokand State Pedagogical Institute

Scientific supervisor: Ph.D., prof. M. Abduvaliyev

Annotation

This article analyzes the linguo-pragmatic features of social advertisements created in English and Uzbek. Advertising language is a specific type of communication aimed at conveying a social idea, shaping behavior, and motivating positive action. The study examines the semiotic, linguistic, psychological, and stylistic features of advertising texts as well as their persuasive power and cross-cultural differences.

Keywords: advertising, linguopragmatics, social advertising, semiotics, cultural difference, persuasiveness, communicative purpose

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan ijtimoiy reklama matnlarining lingvopragmatik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Reklama tili kommunikativ jarayonning o'ziga xos turi bo'lib, u auditoriyaga ijtimoiy g'oyani yetkazish, xulq-atvorni shakllantirish va ijobiy harakatga undashga xizmat qiladi. Tadqiqotda reklama matnlarining semiotik, lingvistik, psixologik va uslubiy jihatlari, ularning persuaziv (ishontiruvchi) kuchi hamda madaniyatlararo tafovutlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: reklama, lingvopragmatika, ijtimoiy reklama, semiotika, madaniy tafovut, persuazivlik, kommunikativ maqsad

Asosiy qism

Zamonaviy reklama ijtimoiy ong va xulq-atvorni shakllantirishda muhim vositaga aylandi. Ingliz va o'zbek tillaridagi reklama matnlarining lingvopragmatik tahlili ularning maqsadi, tili va madaniy kontekstini ochib beradi. Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalarda odatda qisqa, lo'nda va to'g'ridan-to'g'ri murojaat shakli qo'llaniladi, masalan, 'Stop smoking – start living'. Bunday shiorlarda sintaktik parallelizm va antitezaning birgalikda ishlatilishi emotsional ta'sirni kuchaytiradi. O'zbek tilidagi reklamalarda esa nasihat ohangi, jamoaviy qadriyatlar va hissiy ohang kuchliroq ifodalanadi: 'Hayotingiz o'z qo'lingizda – sog'lom yashang!'. Bu madaniyatlararo tafovutlarning ifodasidir, chunki ingliz reklamalari individualistik qadriyatlarga tayanadi, o'zbek reklamalari esa jamoaviy qadriyatlarni targ'ib qiladi.

Reklama tili semiotik tizim sifatida belgilar, ranglar, tovush va obrazlar orqali ta'sir o'tkazadi. Masalan, yashil rang ekologik tozalikni, qizil rang esa xavf va diqqatni bildiradi. Lingvopragmatik tahlil bu belgilar tizimini matnning kommunikativ niyatiga bog'lab o'rganadi. Fairclough (2001) reklamaning ijtimoiy diskurs sifatida kuch va ideologiyani shakllantiruvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, reklama tili auditoriyaning psixologiyasiga ta'sir etuvchi vosita sifatida ham o'rganiladi. Cook (1992) reklama diskursining samaradorligi kontekst, tildan tashqari belgilar va madaniy moslashuvga bog'liq ekanini ta'kidlagan. Bu jihatlar ingliz va o'zbek ijtimoiy reklamalarining farqli strategiyalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi ijtimoiy reklama matnlari lingvopragmatik jihatdan turlicha strategiyalarni qo'llasa-da, ularning umumiy maqsadi jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirishdir. Til vositalarining to'g'ri tanlanishi, madaniy kontekstga moslashuvi va hissiy ta'sir kuchi reklama samaradorligini belgilaydi. Lingvopragmatik

yondashuv reklama matnlarining nafaqat semantik, balki ta'sir kuchini o'rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Cook, G. (1992). The Discourse of Advertising. Routledge.
2. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. Longman.
3. Nida, E.A. & Taber, C. (1969). The Theory and Practice of Translation. Brill.
4. Fairclough, N. (2001). Language and Power. Longman.
5. O'zbekiston Respublikasi 'Reklama to'g'risida'gi Qonuni, 2021-yil.

Geopolitical Discourse In Translation

Gulnoz Mamarasulova

Associate Professor, PhD

Alisher Navo'i Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature

Abstract

This article examines the nature, structure, and communicative functions of geopolitical discourse as reflected in media texts and translation studies. It explores how geopolitical narratives are constructed through language and ideology, emphasizing their pragmatic and socio-cultural dimensions. The study also analyses how key geopolitical terms operate within specific contexts, revealing how semantic nuances shift across languages and cultures. Furthermore, it discusses the intertextual variations between original and translated texts, showing how translation mediates and re-frames geopolitical meanings. Drawing on discourse analysis, pragmatics, and translation theory, the paper argues that translation is not merely linguistic substitution but an act of ideological negotiation within the global information space.

Key words: geopolitical discourse, pragmatics, translation studies, media communication, linguistic analysis, intertextuality, semantics, ideology.

Geopolitical discourse represents a complex system of linguistic and ideological constructs through which states, institutions, and media articulate political power and spatial identity. Its structure includes actors (states, leaders, alliances), actions (conflicts, cooperation, sanctions), and evaluative frames (threat, stability, security). The communicative function of this discourse is to influence perception, legitimizing political decisions, shaping public opinion, and constructing the image of “self” versus “other.”

From a linguistic standpoint, geopolitical discourse operates through metaphorization (“iron curtain,” “axis of evil”), presupposition (“inevitable expansion”), and modality (“must defend,” “could threaten”). Pragmatically, it functions as a persuasive tool that encodes ideological positions while appealing to collective memory and emotional resonance.

Mass media serves as the main arena for geopolitical discourse production and dissemination. The language of news reports, analytical articles, and political commentaries often reflects implicit power relations and national narratives. Linguo-pragmatically, geopolitical media texts use evaluative vocabulary, hedging strategies, and speech acts of accusation, justification, and solidarity. For example, verbs like *to condemn*, *to support*, or *to ensure stability* are not neutral, they perform ideological work. Socio-culturally, media discourse reflects each nation’s worldview and political ideology. Western outlets often frame conflicts through democratic values and human rights, while others emphasize sovereignty and non-interference. Thus, understanding these texts requires decoding not only linguistic meaning but also cultural codes, symbols, and contextual knowledge.

In translation studies, *discourse* is viewed as a system of meanings shaped by ideology, while *pragmatics* focuses on how context determines interpretation. Translating geopolitical discourse, therefore, requires sensitivity to both linguistic form and communicative intent. The translator’s role extends beyond word equivalence to discourse mediation. The pragmatic dimension, implicatures, presuppositions, politeness strategies must be reconstructed in the target language without distorting ideological stance. For instance, translating a phrase like “*strategic deterrence*” into another language demands understanding its intertextual function within security discourse, not merely its dictionary meaning. Misalignment in pragmatic or cultural interpretation may lead to political misrepresentation.

Language in geopolitical discourse operates not only as a means of communication but also as a carrier of ideology. Each term carries a *semantic field* shaped by history, political

orientation, and cultural worldview. When translated between English and Uzbek, geopolitical terms undergo shifts in connotation, pragmatic force, and ideological alignment. Below is an analysis of several key terms frequently used in international relations and political journalism.

1. Sovereignty – Suverenitet. In English discourse, *sovereignty* refers to the supreme authority of a state to govern itself, free from external interference. It has both legal and philosophical connotations, associated with independence and territorial integrity. In Uzbek, *suverenitet* is a direct borrowing, yet its semantic range tends to emphasize state power rather than citizen autonomy. For example:

English: *The EU respects the sovereignty of all its member states.*

Uzbek: *Yevropa Ittifoqi barcha a'zo davlatlarning suverenitetini hurmat qiladi.*

While the English text highlights *mutual respect* within a multilateral framework, the Uzbek rendering often carries a stronger notion of non-interference and national control, reflecting post-Soviet political discourse.

2. Security – Xavfsizlik. The term *security* is highly polysemous: it may denote national defense, human safety, or global stability. In English geopolitical texts, *security* often integrates with democratic values (*human security, energy security*). In Uzbek, *xavfsizlik* is broader but typically refers to state stability and public order.

English: *Human security must be prioritized alongside national security.*

Uzbek: *Inson xavfsizligi milliy xavfsizlik bilan bir qatorda ustuvor bo'lishi kerak.*

Here, the conceptual innovation of *human security* is retained, but in Uzbek practice the emphasis still gravitates toward collective or governmental security rather than individual rights.

3. Integration – Integratsiya. In Western discourse, *integration* connotes unity, inclusion, and cooperation (e.g., European integration). In Uzbek political contexts, *integratsiya* can be ambivalent: while associated with economic cooperation, it may raise concerns about sovereignty loss or dependency.

English: *Regional integration fosters stability and economic growth.*

Uzbek: *Mintaqaviy integratsiya barqarorlik va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.*

Though the literal meaning matches, pragmatically the Uzbek sentence often requires balancing language such as *xizmat qiladi* ("serves to") softening the sense of political union.

Intertextuality is central to understanding how geopolitical messages travel across languages.

Media texts often reference historical events, international treaties, or prior political statements, which shape the reader's interpretation.

During translation, these intertextual ties may weaken, shift, or acquire new meanings.

Translators must decide whether to preserve the metaphor, adapt it, or explain it through commentary. Expressive shifts occur when linguistic choices alter tone or emphasis changing the intensity of evaluation or emotional charge. Thus, translation becomes a site of negotiation where meaning is reconstructed to suit new ideological and cultural frames.

Geopolitical discourse functions as both a linguistic and ideological phenomenon that mediates power relations through communication. Translating such discourse requires an interdisciplinary approach combining pragmatics, semantics, and cultural analysis. Each act of translation reshapes geopolitical meaning, revealing how language, ideology, and identity intertwine within global communication. Recognizing these dynamics allows translators to act as informed mediators rather than passive conveyors of political rhetoric.

References

- Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
- Fairclough, N. (1995). *Media Discourse*. London: Edward Arnold.
- Chilton, P. (2004). *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. Routledge.
- Mamarasulova, G. (2024). *Distinctive characteristics and complexity of sociopolitical texts*. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, (2), 88–93. Bukhara.



Mamarasulova, G. (2024). *Features of translation of socio-political texts in the pragmatic aspect*. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal, 12(4 [121]), 232–236. ISSN 2091-573 X.

The Importance Of A Linguopragmatic Approach In Translating Advertising Texts

Gafurova Mutabar Fakhridin qizi,

Master student of the Kokand State Pedagogical Institute

Scientific supervisor: Ph.D., prof. M. Abduvaliyev

Annotation

The article explores the theoretical and practical significance of a linguo-pragmatic approach in translating advertising texts. It emphasizes that a translator's task is not merely literal translation, but the recreation of the message's pragmatic force, emotional impact, and cultural adaptation in the target environment.

Keywords: translation, advertising text, linguopragmatics, cultural adaptation, semiotic analysis, communicative effectiveness

Annotatsiya

Maqolada reklama matnlarini tarjima qilishda lingvopragmatik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjimonning vazifasi faqat so'zma-so'z tarjima emas, balki reklama xabarining pragmatik kuchi, hissiy ta'siri va madaniy moslashuvini yangi madaniy muhitda qayta yaratishdan iborat ekanini yoritiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, reklama matni, lingvopragmatika, madaniy moslashuv, semiotik tahlil, kommunikativ samaradorlik

Asosiy qism

Reklama tarjimasi lingvopragmatik yondashuv asosida o'rganilganda, tarjimon nafaqat so'zning ma'nosini, balki uning konnotatsiyasini, hissiy ohangini va maqsadli auditoriyaga ta'sirini ham hisobga oladi. Masalan, ingliz tilidagi 'Keep calm and carry on' shiori so'zma-so'z tarjima qilinsa, u o'zining persuaziv kuchini yo'qotadi. Ammo 'Bosiqlik – g'alabaniing kaliti' tarzidagi tarjima lingvopragmatik jihatdan mos keladi, chunki u hissiy va madaniy kontekstni hisobga olgan.

Reklama tarjimasida semiotik elementlar – rang, tasvir, tovush va shakl – alohida ahamiyatga ega. Har bir madaniyatda bu belgilar turlicha ma'no kasb etadi. Masalan, oq rang ingliz madaniyatida poklikni, ba'zi sharq mamlakatlarida esa motamni anglatadi. Shuning uchun tarjimon reklama belgilarining madaniy konnotatsiyasini chuqur anglab, yangi auditoriyaga moslashtirishi zarur.

Nida va Taber (1969) tarjima jarayonida 'dynamic equivalence' tamoyilini ilgari surib, tarjimaning asosiy vazifasi matnning ta'sir kuchini saqlab qolish ekanini ta'kidlagan. Bu fikr reklama tarjimasida ayniqsa dolzarb, chunki reklamaning muvaffaqiyati uning kommunikativ samaradorligiga bog'liq. Lingvopragmatik yondashuv reklama xabarini yangi madaniy muhitda tabiiy, ishonarli va emotsional tarzda qabul qildirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, reklama matnlarini tarjima qilishda lingvopragmatik yondashuv reklama xabarining semantik ma'nosini emas, balki uning hissiy urg'usi, persuaziv kuchi va madaniy ruhini yetkazishga yordam beradi. Bu yondashuv tarjima jarayonida kommunikativ ekvivalentlik va madaniy moslashuvni ta'minlaydi, natijada reklama matni yangi auditoriyada ham samarali bo'ladi.

The Role Of Emotional Intelligence In Forming Stress Resilience

Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon kizi

Andijan State Medical Institute, 417

Annotation

The article highlights the importance of emotional intelligence in forming a person's stress tolerance. Emotional intelligence, as a person's ability to understand and manage their own emotions and correctly perceive the emotions of others, is an important factor in psychological stability. The results of the study show that individuals with developed emotional intelligence choose positive adaptation strategies in stressful situations and maintain emotional stability.

Keywords: emotional intelligence, stress, stress tolerance, emotional stability, personal development.

Annotatsiya

Maqolada shaxsning stressga bardoshlilikini shakllantirishda emotsional intellektning ahamiyati yoritilgan. Emotsional intellekt insonning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish hamda boshqalarning emotsiyalarini to'g'ri idrok etish qobiliyati sifatida psixologik barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekti rivojlangan shaxslar stressli holatlarda ijobiy moslashuv strategiyalarini tanlaydi va hissiy barqarorlikni saqlab qoladi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, stress, stressga chidamlilik, hissiy barqarorlik, shaxsiy rivojlanish.

Kirish

Zamonaviy inson faoliyati murakkab, raqobatli va tez o'zgaruvchan muhitda kechmoqda. Bunday sharoitda stress omillarining kuchayishi tabiiy jarayon bo'lib, ular shaxsning ruhiy holatiga, ish samaradorligiga va salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois insonda stressga chidamlilikni shakllantirish, uni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb psixologik masalalaridan biridir. So'nggi yillarda stressni yengishda emotsional intellekt (EI) muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. EI insonning o'z his-tuyg'ularini tan olish, boshqarish, boshqalar hissiyotlariga empatiya bilan yondashish va ijobiy munosabat o'rnatish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Emotsional intellekt nafaqat ijtimoiy muvaffaqiyat, balki ruhiy sog'lomlik, stressga bardoshlilik va professional moslashuvning ham asosi hisoblanadi.

I. Emotsional intellektning nazariy mazmuni (kengaytirilgan tahlil)

Emotsional intellekt (EI) tushunchasi ilk bor 1990-yillarda amerikalik psixologlar P. Salovey va J. Mayer tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ular EI'ni "o'z hissiyotlarini va boshqalar hissiyotlarini aniqlash, tushunish, farqlash hamda bu ma'lumotlardan fikrlash va xatti-harakatlarni boshqarishda foydalanish qobiliyati" sifatida ta'riflagan. BKeyinchalik D. Goulman ushbu tushunchani kengaytirib, emotsional intellektni inson muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko'rsatdi. U IQ (intellekt koeffitsiyenti) bilan bir qatorda EI'ni ham hayotiy muvaffaqiyatning ajralmas tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Goulman modeliga ko'ra, emotsional intellekt quyidagi besh asosiy komponentdan iborat:

1. O'zini anglash (Self-awareness) – insonning o'z his-tuyg'ularini tanib olish va ularning sababini tushunish qobiliyati. Bu ko'nikma stressli vaziyatlarda hissiy javoblarni nazorat qilish imkonini beradi.
2. O'zini boshqarish (Self-regulation) – hissiyotlarni ongli tarzda nazorat qilish, salbiy his-tuyg'ularni ijobiy yo'nalishga burish, sabr va irodani saqlash.
3. Ichki motivatsiya (Motivation) – insonning o'z maqsadlariga yetishishdagi ichki ishonchi, qat'iyligi va ijobiy ruhiy holati.
4. Empatiya (Empathy) – boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularning holatiga mos tarzda munosabat bildirish.

5. Ijtimoiy ko`nikmalar (Social skills) – sog`lom muloqot, hamkorlik, murosaga kelish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash qobiliyatlari.

Mazkur komponentlarning barchasi stressli vaziyatlarda shaxsning psixologik barqarorligini ta`minlashda bevosita rol o`ynaydi. Masalan, o`zini anglaydigan va boshqaradigan inson his-tuyg`ularini to`plamaydi, balki ulardan samarali foydalanadi. Empatiyasi kuchli shaxs esa jamoada ijobiy muhit yaratib, o`ziga ham, boshqalarga ham ruhiy tayanch bo`la oladi.

Bundan tashqari, zamonaviy psixologiyada emotsional intellektning ikki darajasi farqlanadi:

Intrapersonal EI – shaxsning o`z ichki hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyati;

Interpersonal EI – boshqalar bilan hissiy jihatdan to`g`ri munosabat o`rnatish, empatiya va ijtimoiy moslashuv.

Har ikki daraja stressga chidamlilikni mustahkamlovchi asosiy psixologik resurs hisoblanadi.

II. Stressga chidamlilik tushunchasi va uning psixologik mexanizmlari

Stressga chidamlilik – bu shaxsning stressli omillar ta`sirida ruhiy muvozanatini saqlab qolish, muammolarni ijobiy hal etish va vaziyatdan o`zini yo`qotmasdan chiqish qobiliyatidir.

Stressga bardoshli o`z his-tuyg`ularini nazorat qila oladi, holatni real tahlil qiladi, albiy emotsiyalarni konstruktiv yo`lga buradi, muammolarga yechim topishga qaratilgan faol pozitsiyani egallaydi. Emotsional intellekt bu jarayonda “ichki boshqaruv tizimi” sifatida xizmat qiladi. U hissiyotlarni boshqarish, stressni yengish va o`zini ruhiy jihatdan barqaror tutishda shaxsga yordam beradi.

III. Emotsional intellekt orqali stressni boshqarishning pedagogik imkoniyatlari

Ta`lim jarayonida stressga bardosh berish o`qituvchi va talabalar uchun muhim psixologik vazifa hisoblanadi. Emotsional intellektni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik usullar samarali:

Refleksiya mashqlari – o`z hissiyotlarini anglashni o`rgatadi;

Empatiya treninglari – boshqalarning holatini tushunishga yordam beradi;

Ruhiy barqarorlik mashg`ulotlari – stressni boshqarish ko`nikmalarini mustahkamlaydi;

Ijobiy muloqot va o`zaro qo`llab-quvvatlash – sinf yoki jamoada sog`lom psixologik muhitni shakllantiradi.

IV. Stressga chidamlilikni rivojlantirish bo`yicha amaliy tavsiyalar

1. O`z hissiyotlarini anglash va qabul qilish – stressni yengishning birinchi qadami.

2. Nafas va tana bo`shashtirish mashqlari – organizmni tinchlantiradi.

3. Ijobiy fikrlashni shakllantirish – muammoni tajriba sifatida qabul qilishni o`rgatadi.

4. Ijtimoiy qo`llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish – yaqinlar bilan muloqot qilish stressni kamaytiradi.

5. Sog`lom turmush tarzi va dam olish – fiziologik barqarorlikni ta`minlaydi.

Xulosa

Emotsional intellekt shaxsning ruhiy barqarorligini saqlash, stressli vaziyatlarda o`zini tuta bilish va muammolarga ijobiy yondashishda markaziy rol o`ynaydi. EI komponentlarini rivojlantirish orqali inson nafaqat stressga bardosh bera oladi, balki o`z salomatligi, kasbiy samaradorligi va ijtimoiy munosabatlarini ham yaxshilaydi. Shu sababli ta`lim tizimida, xususan, bo`lajak pedagog va psixologlarda emotsional intellektni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.

Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 1990.

Petrides K. V., Furnham A. Trait Emotional Intelligence: Psychometric Investigation with Reference to Established Trait Taxonomies. European Journal of Personality, 2001.

- Abdullayeva N. "Shaxsda stressga bardoshlilikni shakllantirish omillari." Psixologiya jurnali, 2022.
- Jo`rayev S. "Pedagogik faoliyatda emotsional barqarorlikni rivojlantirish masalalari." Ta`lim va innovatsiya, 2023.

The Effect Of Nitrogen Fertilizers Of Various Rates On The Yield Of Fine-Fiber Cotton

Kh.Kh.Zokirov,

Professor, Termez State University

M.T.Ne'matova

master's student of Termez State University

Annotation

Cotton growing is one of the main industries of our country, satisfying the need of humanity for the only natural cellulose. For this reason, on March 6, 2020, the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev adopted Resolution No. PQ-4633 "On the widespread introduction of market principles in the field of cotton growing". It states that updating and placing cotton varieties in agricultural production in Uzbekistan, properly organizing their selection and seed production, achieving fiber quality at a competitive level in the world market, effective use of mineral fertilizers, and absolutely preventing the monopoly of cotton are important tasks set before the cotton growers of our country. In this regard, the agrophysical and agrochemical properties of the experimental fields were studied, and on this basis, the effect of different rates of nitrogen fertilizers on the yield of Termez-208 fine-fiber cotton was studied. According to the results of the experiment, an annual rate of nitrogen fertilizers was recommended for fields with low nitrogen and phosphorus and sufficient potassium, distributed on the barren meadow soils of the Surkhandarya region.

Annotatsiya

Paxtachilik mamlakatimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, insoniyatni yagona tabiiy sellulozaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 6 martda "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish to'g'risida" PQ-4633 sonli qaror qabul qilindi. Unda O'zbekiston hududida ekiladigan qishloq xo'jaligidagi paxta navlarini yangilash va joylashtirish uni seleksiyasi va urug'chiligini to'g'ri yo'lga qo'yish, tola sifatini jahon bozorida raqobatbardosh darajada bo'lishiga erishish, mineral o'g'itlardan samarali foydalanish, paxta yakka hokimligiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik mamlakatimiz paxtakorlari oldiga qo'yilgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada tajriba o'tkaziladigan dalalarning agrofizik, agrokimyoviy xossalari o'rganilib, shu asosida turli me'yordagi azotli o'g'itlarning Termiz – 208 ingichka tolali paxta hosiliga ta'siri o'rganildi. Tajriba natijalariga ko'ra Surxondaryo viloyati taqirli o'tloqi tuproqlarda tarqalgan azot va fosfor bilan kam, kaliy bilan yetarlicha ta'minlangan dalalar uchun azotli o'g'itlarning yillik me'yori tavsiya etildi.

Kirish. Paxtachilik mamlakatimizda qishloq xo'jaligining iqtisodiy samara beruvchi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 6 martda "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etishda" PQ – 4633 sonli qarori qabul qilindi. Unda O'zbekiston Respublikasi xududida 2018 – yilda ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi reysriga kiritilgan paxta navlarini yangilash va joylashtirish, uning seleksiyasi va urug'chiligini to'g'ri yo'lga qo'yish, tola sifatini jahon bozorida raqobatbardosh darajada bo'lishiga erishish va kelgusida paxta hosilini to'la mexanizatsiyalash yordamida yig'ib-terib olish, dalalarda tuproq unumdorligini mutassil oshirib borish, g'o'zaning kasalliklarga chidamli, serhosil yuqori sifatli navlarini ishlab chiqarishga joriy etish, o'g'itlardan samarali foydalanish, to'g'ri almashlab ekishni barcha xo'jaliklarga joriy etish, paxta yakka hokimligiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik mamlakatimiz paxtakorlari oldida turgan vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarda mo'ljallangan strategiyasida "tuproq iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda mineral o'g'itlardan

foydalanishning samarali tizimini joriy etish, tuproq unumdorligini saqlash va yanada oshirish choralari ko'rish" borasidagi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Tadqiqotning maqsadi – Surhondaryo viloyati taqir-o'tloq tuproqlar sharoitida ingichka tolali paxtadan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda azotli o'g'itlar va suv rejimining maqbul me'yorlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifasi tajriba natijalariga ko'ra yuqori va sifatli hosil yetishtirilgan variantlarni taxlil qilib ishlab chiqarishga tavsiya etish.

Mavzuga oid adabiyotlar (literature review). Ma'lumki, dehqonchilikda qishloq xo'jaligi ekinlari ekilib, undan hosil yetishtirilishi munosabati bilan tuproqdan juda ko'plab mikro va makro ozuqa elementlari chiqib ketadi. Masalan, xar tonna makkajo'xori tuproqdan 90-100 kg, boshqali ekinlar 60-70 kg, paxta esa 120-130 kg ozuqa moddalarni oladi. Bu sonlardan ko'rinib turibdiki, tuproq ozuqa elementlarga qanchalik boy bo'lmasin, ular o'rnini o'z vaqtida to'ldirib turmaslik qaysidir ma'noda tuproq unumdorligini pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida hosildorlikning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida bu kabi muammolarni to'g'ri hal etish uchun esa ilmiy tadqiqotlar zarur bo'ladi. Bu borada dunyo miqyosida AQSH da J.A.Lamb, Hindistonda D.J.Boquet, Xitoyda J.Gong tomonidan ingichka tolali paxtada tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa, mamlakatimizda Zelenin N.N., Boltayev X.B., Zokirov X.X. lar tomonidan turli yillarda ingichka tolali paxtaning Termiz-7, Termiz-14, Termiz – 16 navlarida mineral o'g'itlarning ingichka tolali paxta hosiliga va sifatiga ta'siri o'rganilgan.

Vaholanki, dehqonchilikda xar bir nav yaratilishi bilan uning agrotexnologiyasi ham mukammal o'rganilishini taqozo etadi. Xususan, Surhondaryo viloyatining sug'oriladigan taqir-o'tloq tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'ozani oziqlantirishda mineral o'g'itlarning qo'llash me'yor va nisbatlarini takomillashtirish bo'yicha Termiz-208 navida tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Ilmiy tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida agrokimyoda umumqabul qilingan metodikalar asosida amalga oshirildi. Dala tajribalarini qo'llash, fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchash va boshqalar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007), "Методика полевого опыта" (1985), "Sug'oriladigan tuproqlarda mineral va organik o'g'itlarni tabaqalashtirib qo'llash bo'yicha tavsiyalar" (2014), tuproq va o'simlik taxlillari "Методика агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" (1963) uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Olingan natijalarning matematik-statistik taxlili B.A.Dospexov qo'llanmasi bo'yicha amalga oshirildi.

Taxlil va natijalar (analysis and results). Tadqiqotlar 2022-2024 yillar mobaynida Surxondaryo viloyati Termiz tumani xududida joylashgan ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba xo'jaliklari dalalarida olib borildi.

Dala tajribalari o'tkazilgan dala tuproqlari taqir-o'tloqi bo'lib, yuqori qatlamli og'ir mexanik tarkibli bo'lganligi sababli qatqaloqqa moyil. Salbiy tomoni shundaki bahorgi yomg'irlar tufayli qatqaloqqa qarshi ishlov berilmasa yosh nihollar dimiqib nobud bo'ladi.

Tajriba dalasi tuprog'ining agrokimyoviy ko'rsatgichlari.

1-jadval

Tuproq qatlamlari, sm	Umumiy shakllari, %				Xarakatchan shakllari, mg/kg		
	Chirindi (gumus)	Azot	Fosfor	Kaliy	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
0-29	1,126	0,094	0,126	1,284	14,1	20,1	211
30-40	0,689	0,074	0,120	1,201	9,3	10,9	178
50-60	0,582	0,062	0,097	1,102	5,2	8,2	164
60-100	0,463	0,051	0,072	1,087	3,2	6,3	159
100-110	0,348	0,026	0,063	0,079	2,1	5,0	146

Xar xil me'yordagi azotli o'g'itlarni ingichka tolali paxta hosiliga ta'siri

2-jadval

№	Mineral o'g'itlarning me'yori, kg/ga			O'g'itlarni qo'llash nisbati	Tajriba o'tkazilgan yillar			O'rtacha 3 yilda olingan hosil, s/ga	Nazoratga nisbatan olingan qo'shimcha hosil
	Azot N	Fosfor P2O5	Kaliy K2O		2022	2023	2024		
1	0	0	0	0:0:0	20,2	17,3	12,6	16,7	-
2	150	120	75	1:0,8:0,5	27,4	24,2	22,6	24,7	8,0
3	175	140	87	1:0,8:0,5	28,3	26,4	25,5	26,7	10,0
4	200	160	100	1:0,8:0,5	30,8	29,8	27,1	28,8	12,1
5	225	180	115	1:0,8:0,5	32,9	31,4	30,8	31,7	15,0
6	250	200	125	1:0,8:0,5	34,2	34,9	33,6	34,2	17,5
7	275	220	137	1:0,8:0,5	36,6	37,4	37,9	37,3	20,6
8	300	240	150	1:0,8:0,5	38,6	39,1	38,8	38,8	22,1
9	325	260	163	1:0,8:0,5	38,7	39,2	38,9	38,9	22,2

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan yillarda hech qanday mineral o'g'itlar qo'llanilmagan 1-variantda (nazorat) uch yilda o'rtacha bir gektardan 16,7 sentner hosil olingan bo'lib yillar kesimida bu ko'rsatgich 2022 yilda 20,2; 2023 yilda 17,3; 2024 yilda 12,6 s/ga tashkil etgan bo'lib hosildorlik yildan yilga kamayib borgan. Bunga sabab qo'shimcha NPK ni berilmaganligi, paxta hosili tuproqning tabiiy unumdorligi hisobidan olinganligidir.

Azotli o'g'it me'yorining gektariga 150 kg dan 275 kg gacha ortib borishi bilan paxta hosili o'rtacha uch yilda 24,7 sentnerdan 38,9 sentnergacha ortib borgan bo'lsada, gektarida 300, 325 kg azot, 240, 260 kg fosfor, 150, 163 kg kaliyli o'g'itlar berilgan 8-9-variantlarda hosilning pishib yetilishi kechikkan va asosiy hosil hosil 3-4 terimlar hisobidan qoplangan. Mineral o'g'itlar me'yori azot-275, fosfor – 220, kaliy – 137 kg/ga berilgan 7-variantda terim erta yakunlanib g'o'zaning texnologik sifati ko'rsatgichi yaxshi bo'lgan.

Xulosa va takliflar (conclusion and recommendations). Surxondaryo viloyatining sug'oriladigan taqir o'tloq tuproqlari azot va fosfor bilan kam, kaliy bilan yetarlicha ta'minlangan bo'lib, qo'llanilgan mineral o'g'itlar ingichka tolali paxtaning o'sib rivojlanishi va hosiliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mineral o'g'itlar qo'llanilmagan birinchi nazorat variantida paxta hosili uch yilda o'rtacha gektariga 16,7 gektarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich gektariga NPK 150;120;75 kg bo'lgan 2-variantda 24,7 s/ga, NPK – 275;220;137 kg/ga bo'lgan 7-variantda 37,3 s/ga ni tashkil etib ertachi hosil yetishtirildi.

Gektariga 300, 325 kg azotli o'g'itlar berilgan 8-9-variantlarda nisbatan hosil yuqori bo'lsada asosiy hosil so'nggi 3-4-variantlar hisobidan qoplandi.

Surxon-Sherobod vohasining taqir – o'tloq tupqorlari sharoitida ingichka tolali Termiz – 202 navidan ertachi va yuqori hosil yetishtirish uchun N – 275, P – 220, K – 137 kg/ga mineral o'g'itlarni maqbul me'yorini qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 47-son qarori “ingichka tolali paxta yetishtirishni samarali tashkil etish, yangi navlarni ko'paytirish va rag'batlantirish mexanizmini joriy etish to'g'risida” 2020 yil 31-yanvar.

Avliyaqulov M., Durdiyev N., Allanov X. ingichka tolali g'o'za navlarini yetishtirish istiqbollari. Agroiqlim – Toshkent. 2020 №3, B-6-7.

Saidov M., Zokirov X. “Paxtachilik” darslik. Toshkent 2023., IRFON - PRINT

Contents of Vol. 1 No. 4 (2025)

Paper No.	Full Names	Title	Page Numbers
1	Shoira Ilhomovna Toliyeva	Special Linguistic Expertise Model	4–6
2	Shirin Ziyaeva	The Conflict Between Reason And Emotion In Daniel Keyes' Novel "Flowers For Algernon"	7–8
3	Shoira Ilhomovna Toliyeva	The Essence Of The Concept Of Insult	9–10
4	Shirin Ziyaeva	The concept of psychologism and the role of psychological analysis in American and Uzbek literature	11–12
5	Asal Qurbanova	Development Of Students' Cognitive Skills Through Ecological Education In Preschool Educational Organizations	13–16
6	Шахло Анваровна Атаходжаева	Роль Информационных Технологий В Обществе	17–21
7	Ziyodaxon Qodirova	Cross-Linguistic Representation of National Identity through Proverbs	22–24
8	Ziyodaxon Qodirova	Translation and Cultural Adaptation of Proverbs from Uzbek and English Literature	25–29
9	Нигорахон Одилжонова	Дисфункция Височно-Нижнечелюстного Сустава: Симптомы, Клиника, Лечение	30–31
10	Shoxsanam Raxmonova	Fibrous Periodontitis: Modern Evidence-Based Approaches to Treatment	32–33
11	Mukhlisa Khusanboyeva	The Role Of Theoretical And Practical Research In The Development Of Computer Linguistics	34–36
12	Inobatkhon Toshpulatova	Development Of Creative Competence In Preschool Children	37–39
13	Зулхумор Мамитхоновна Раҳматова	Язык В Психолингвистических Подходах Рассматривается Как Человеческое Богатство	40–42
14	Dilnoza Zokirjonovna Yakubova	State And Family Partnership In The Management Of Preschool Education In Japan And South Korea	43–46
15	Abdulmut Yuldashev	Ecological Problems At The International Level	47
16	Dilnoza Zokirjonovna Yakubova	Innovative Approaches In Managing The Preschool Education System Based On The Finnish Experience	48–52
17	Анора Очилова	Усовершенствование Педагогических Условий При Обучении Русскому Языку Как Иностранному	53–54
18	Hilolakhan Takhirova	Emotional Intelligence Development Programs And Their Effectiveness	55–56

19	Анора Очилова	Инновационные Подходы К Модернизации Педагогических Условий...	57–58
20	Gulchehra Nigmatovna Navruzova	The Problem Of Spiritual Balance Of Human In The Rubaiyat Of Bahauddin Naqshband	59–62
21	Sadokat Erkinaliyevna Zakirova, Rixcitilla Najmiddinov, Alisher Avazovich Nodirov	Phosphate From Raw Materials Extraction To Obtain Phosphoric Acid	63–64
22	Zarnigor Muhammadjonova	Features Of Creative Thinking Of Primary Grade Students	65–69
23	Zarnigor Muhammadjonova	Main Factors Affecting Creative Skills In Primary Education	70–74
24	Shakhlo Anvarovna Atakho'jayeva	Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher	75–80
25	Чаросхон Абдуллаева	Символическое Кодирование Социальной И Моральной Реальности В Романе «Мираж»	81–83
26	Khabibulla Goyibnazarov, Xabibulla Umarov	Biological Applications Of The Definite Integral	84–87
27	Charoskhon Abdullaeva	Philosophical And Psychological Analysis Of The Oneiric Space In G. V. Pryakhin's Novel Mirage	88–90
28	Xabibulla Umarov, Khabibulla Goyibnazarov	Some Principles Of Creative Training And Education Of Modern Youth	91–93
29	Abdulla Almuradov, Aziza Oybekovna Asrorova	Structural Econometric Models In Statics And Dynamics...	94–95
30	Мадина Тургунбоевна Захидова	Содержание И Научно-Концептуальные Основы Повышения...	96–99
31	Ziyodaxon Kenjayeva	The Inextricable Linkages of Practice with Pedagogy in Sewing Lessons	100–101
32	Ulugbek Ramazanov	The role of the Uzbek State University of World Languages...	102–106
33	Ziyodaxon Kenjayeva	Innovative methods of teaching sustainable development principles...	107–108
34	Улугбек Рамазанов	Международное Сотрудничество Узбекского Государственного...	109–114
35	Raykhona Khojaeva	Stages Of Development Of The Genre Of The Short Story	115–117
36	Yakutkhan Bahodirovna Kamalova	Advantages Of Explaining Protein Denaturation To Students...	118–120
37	Khojaeva Raykhona	The genre of the fiqra in the works of Askad Mukhtor and Erkin Azam	121–122
38	Ma'mura Sobirjonovna Sharofova	Directions Of Remote Banking Services In Commercial Banks...	123–126

39	Oybek Abdullaevich Aripov, Muhammadali Ismailov	Poverty Reduction Strategies Based On The Development Of Small Businesses	127–130
40	Ma'mura Sobirjonovna Sharofova	Issues Of Digitalization Of Banking Services In Commercial Banks	131–134
41	Madinaxon Turaboye	Academic Success And Its Role In Developing Students' Academic Activities	135–137
42	Umidaxon Mamatkhanova	Cooperation Of The State And Society In The Restoration Of National Educational Values	138–141
43	Odiljon Murtazakulov	Components of the English Language in the IB System...	142–143
44	Одилжон Муртазакулов	Компоненты английского языка в IB- контексте...	144–145
45	Azizbek Naraliev	The Impact Of Ai-Powered Tools On Language Learning And Assessment	146–149
46	Мухтасар Гуламовна Абельфазова	Искусственный Интеллект И Будущее Преподавания И Обучения	150–151
47	Azizbek Naraliev	The Evolution Of Artificial Intelligence: From Machine Learning To Generative Intelligence	152–154
48	Азизбек Гофуров	Инновационные Биоматериалы И Плазменные Технологии В Синус- Лифтинге	155–156
49	Mohtobakhon Mukhtoralizoda Saydakhmatova	Improving the Methodology of Teaching English to Pedagogy Students...	157–158
50	Shakhlo Jamolidinova Jaloliddinova	Methods Of Fixation Of Removable Dentures Using Dental Implants	159–160
51	Mohtobakhon Mukhtoralizoda Saydakhmatova	Development Of An Integrative Approach To Teaching English...	161–162
52	Iroda Yuldasheva, Bakhtikhon Kochkorbayevna Kurbanova	The effectiveness of innovative methods in developing reading literacy...	163–165
53	Iroda Yuldasheva, Bakhtikhon Kochkorbayevna Kurbanova	The role of teacher pedagogical competence...	166–168
54	Shodiyor Tokhirov	Modeling And Forecasting Financial Economic Indicators...	169–173
55	Dilafruz Nusratullayevna Fayziyeva	The Challenges of Learning a New Language as an Adult	174–176
56	Saodat Jalolova	The Artistic Skill Of Nosir Fazilov	177–179
57	Barno Rajabboqiyeva	Social Deixis Composition In English And Uzbekistan	180–184
58	Dilmurod Murtazoyevich Mavlonov	The Role Of Case Study Technology In Professional Direction Of Graduating Students	185–187

59	Shahzoda Xudoyorova	The Current State and Prospects of Inclusive Education in Uzbekistan	188–189
60	Dilmurod Murtazoyevich Mavlonov	The Role Of Case Study Technology In Professional Guidance Of Graduate Students	190–192
61	Diyora Turanova	Analysis Of The Activity Of Electronic Banking Services In The Economy	193–195
62	Gulinur Polvonova	Quantum-Chemical Evaluation of the Interaction Between Copper(II) Ions and Silk Fibroin Macromolecules	196–197
63	Mushtariybegim Khudoyberdiyeva	Ancient scientific heritage and modern engineering graphics...	198–200
64	Intizor Bekchanova	Integrating Digital Tools and Artificial Intelligence to Enhance Communicative Competence...	201–203
65	Эшкuvatова Ш.	Роль денежных переводов мигрантов в поддержании макроэкономической стабильности Узбекистана	204–211
66	Эшкuvatова Ш.	Тенденции миграционных процессов и объемов денежных переводов...	212–218
67	Gulrukh Shodiyeva	Classification Of Word Groups In English	219–223
68	Ma'ruf G'ayratovich Najmetdinov	The Role Of Multiplatform Digital Interventions In Fostering Healthy Lifestyle Behaviors	224–226
69	Gulnaz Puxarbayevna Yernazarova, Maftuna Fayzulloeva	Organizational-Technological Modeling In The Reconstruction Of Higher Education Institution Buildings	227–229
70	Ahmad Norboev	Increasing The Mobility Of The Spine In 14-16 Year-Old Children With Scoliosis	230–232
71	Masuda Lutpillayeva, Farhod Hoshimov	Synthesis Of Silver Nanoparticles Under The Influence Of Various Reducers	233–235
72	Mirzoxidjon Sotvoldiev	Making Effective Decisions Through Analytics In Data-Driven Management	236–239
73	Dilfuzakhon Koziyeva	Modern Problems In Language Styles And Their Solutions	240–242
74	Mirzoxidjon Sotvoldiev	The Future Of Management In The Era Of Artificial Intelligence	243–249
75	Ozoda Kurbanova	Linguistic Problems In Uzbekistan Hindi Studies	250–251
76	Mutabar Gafurova	Linguopragmatic Features Of Social Advertisements In English And Uzbekistan	252–253
77	Gulnoz Mamarasulova	Geopolitical Discourse In Translation	254–256

78	Mutabar Gafurova	The Importance Of A Linguopragmatic Approach In Translating Advertising Texts	257
79	Odinaxon Tajiboyeva	The Role Of Emotional Intelligence In Forming Stress Resilience	258–260
80	Kh.Kh.Zokirov, M.T.Ne'matova	The Effect Of Nitrogen Fertilizers Of Various Rates On The Yield Of Fine-Fiber Cotton	261–263